

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**5110500-Geografiya o'qitish metodikasi  
ta'lim yo'nalishi uchun**

**MODDIY ISHLAB CHIQRISH ASOSLARI**  
*fanidan*  
**AMALIY MASHG'ULOTLAR**  
*uslubiy qo'llanmasi*



**Tuzuvchi:** katta o'qit. Qodirova M.M.

**Taqrizchi:** dots. Kalonov B.H.

**Uslubiy qo'llanma institut ilmiy kengashining 2015 yil 28 yanvardagi № 6-sonli yig'lishida tasdiqlangan**

## KIRISH

Har bir davlatning iqtisodiy jihatdan yuksalishi birinchi navbatda, u yerda mavjud bo'lgan moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanish holati bilan bevosita bog'liqdir. Sanoat, qishloq xo'jaligi va transport tarmoqlarini o'zida birlashtirgan mazkur soha ma'lum bir turdagi xom ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni kerakli manzilga etkazishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish yo'lini tanlagan mustaqil O'zbekistonda ham mavjud moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari rekonstruktsiya qilindi, resurs imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yangi tarmoqlar barpo etildi. Natijada respublikaga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar miqdori oshdi, chet ellik hamkorlar bilan teng sherikchilik asosida qo'shma korxonalar tashkil etila boshlandi. Tanlangan rivojlanish yo'li to'g'ri ekanligini iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining yildan-yilga ortib borayotgani hamda 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozni oldini olishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosat maqbul echim sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov bu davrida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ayniqsa, moddiy sohaga katta e'tibor berish zarurligini ko'p bora ta'kidlab o'tgan: "...Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutadi..."<sup>1</sup>.

Mazkur uslubiy qo'llanmada moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining asosiy sohalari, ularning har biriga xos bo'lgan texnologik jarayonlar, tarmoqlarning

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning farovonligini yanada yukaltirishdir - T.: O'zbekiston, 2010. 37 bet.

geografik joylashuvida ahamiyatli hisoblangan turli tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy omillar, tarmoqlararo munosabatlar ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Shuningdek, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining jahon davlatlarida hamda respublikamizda rivojlanish xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Uslubiy qo'llanmada "Moddiy ishlab chiqarish asoslari" o'quv predmeti bo'yicha pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish tartibi aks ettirilgan. Ushbu ta'lim texnologiyasida ta'limning zamonaviy talablarini hisobga olgan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'qitishda Qarama-qarshi munosabat, Qora quti, Munozara, Aqliy hujum, Klaster, Venn diagrammasi, Yalpi fikriy hujum usullari, Ishbilarmon o'yinlar, muammoli, ko'rgazmali, axborot ma'ruzalar va pedagogik texnologiyalardan foydalanishning uslubiy tomonlari yoritilgan. Shuningdek, uslubiy qo'llanmada sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va boshqarish, hududiy-ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyil va usullaridan foydalanish, geoekologik vaziyatni sog'lomlashtirish muammolarini respublika viloyatlari misolida ifodalangan.

## **1-Mavzu: Moddiy ishlab chiqarish asoslari kursi maqsadi va vazifasi**

### **Reja:**

1. Moddiy ishlab chiqarish asoslari fanining hozirgi zamon geografiyasi fanlari orasida tutgan o'rnini va ahamiyatini o'rganish.
2. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini iqtisodiy geografik tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganish.
3. Moddiy ishlab chiqarish asoslari fanini o'rganishda qo'llaniladigan tadqiqot usullariga misollar keltirish.

**Ko'rgazmali qurollar:** O'zbekiston iqtisodiy kartasi, Dunyo siyosiy kartasi, Adabiyotlar, Ma'ruza matni, Jahon qishloq xo'jaligi kartasi, o'quv materiallari, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, rangli markerlar.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini iqtisodiy geografik tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganish. Sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining tarmoq tarkibi bilan tanishish.

### **Mavzuning nazariy qismi:**

Fanni maqsadi – talabalarda ishlab chiqarishning asosiy tarmog'i xisoblangan sanoat va qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari, xududiy joylashish shakllari, rivojlanish darajasi, ularning tarmoqlarining asosiy jixatlari, sanoat xududiy joylashuvi natijasida xosil bo'ladigan turli shakllar va ishlab chiqarishning rivojlanishida muxim rol o'ynovchi omillar xaqida bilim berish, ko'nikma va malaka yaratishdan iborat.

- Fanning vazifasi – talabalarda sanoat va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlarining xususiyatlarini aniqlash, ularni joylashtirish va rivojlantirishgazarur bo'ganomillar va qonuniyatlarni belgilashdan iborat

### **Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

Ishlab chiqarish tarmoqlari shakllanishi va rivojlanishi tog'riasidagi bu fan geografik fanlarning barcha tarmoqlari bilan aloqador, bundan tashqari bu ilmiy tarmoq tarix, iqtisodiyot nazariya, sotsiologiya, matematika, statistika, topografiya va kartografiya asoslari va boshqa fanlar bilan bog'langan. Ushbu fanni boshqa fanlardan ajratgan xolda o'rganish imkoniyati yuk, chunki oqibatda biz tulik va oydin natijaga erisha olmaymiz. Xar bir fan bu tarmoqni o'rganaetganda o'z o'rniga ega.

### **Amaliy ishning borishi**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. Moddiy ishlab chiqarish asoslari fani iqtisodiy ijtimoiy geografiya fanlari orasida qanday o'rin tutadi?
2. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari mamlakatlar iqtisodiyotida qanday ahamiyatga ega?
3. Dunyo miqyosida sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlangan mamlakatlarga misollar keltiring.


4. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlangan mamlakatlarni ta'riflang.
5. Iqtisodiy ijtimoiy geografiya fanlarining rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar va ularning ta'limotlarini yoritib bering.
6. N. N. Baranskiy va N.N. Kolosovskiylarning iqtisodiy ijtimoiy geografiya sohasiga qoshgan hissasini yoritish.

### Mavzuga oid topshiriqlar:

1. Moddiy ishlab chiqarish asoslari fanining iqtisodiy ijtimoiy va tabiiy geografik fanlar bilan aloqasi sxemasini chizish.
2. Moddiy ishlab chiqarish asoslari fanida qo'llaniladigan tadqiqot usullari:
  - A. tarixiy
  - B. Taqqoslash
  - C. Statistik
  - D. Matematik
  - E. Kartografik
  - F. Ekstropolyatsiya bashorat metodlari yordamida mamlakatlar sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini tahlil qilish.

Masalan, Taqqoslash metodi yordamida O'rta Osiyo davlatlari sanoat tarmoqlarini, ularning ishlab chiqarish xususiyatlarini qiyosiy solishtirish.

Ekstropolyatsiya-bashorat metodi yordamida Navoiy viloyati sanoat tarmoqlarining kelajakdagi 10-15 yillik rivojlanish istiqbollari bashorat qilish.



## 2-mavzu: Ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllanish va rivojlanish bosqichlari

### Reja:

1. Sanoat fan-texnika taraqqiyotini belgilab beruvchi eng muhim omil.
2. Xalq xo'jaligining tarkibi va tarmoqlarini o'rganish.
3. O'zbekiston respublikasi iqtisodiy xaritasini tahlil qilish.

**Ko'rgazmali quollar:** Yozuvsiz karta, 8-sinf atlas, O'zbekiston sanoatining tarmoqlari tarkibi jadvali, adabiyotlar. Ma'ruza matni, O'zbekiston iqtisodiy kartasi, o'quv materiallari, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, rangli markerlar.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Sanoat fan-texnika taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omil ekanligi, sanoat tarmoqlarining davrlar mobaynida rivojlanish xususiyatlarini o'rganish.

### **Mavzuning nazariy qismi**

Jaxon xo'jaligining shakllanish jarayoni amalda kishilik jamiyatining ja'mi tarixini o'z ichiga oladi. Chunki u ishlab chiqarish kuchlarining necha ming yillar davomidagi evolyutsiyasining natijasidir. Ishlab chiqarishning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlar bilan ifodolanuvchi ayrim bosqichlarga taqsimlash mumkin.

Birinchi bosqich 3 mln. yil avval boshlangan. U paytda odam meva terish, ovchilik va baliq ovlash bilan shugullangan.

Ikkinchi bosqich – qishloq xo'jalik inqilobi. Taxminan 4-3 ming yillik eramizdan avval odam ovchilikdan dexqonchilikka o'tgan. Bu bosqichda insonning ishlab chiqarishi aniq ko'rinib turibdi.

Uchinchi bosqich – o'rta asrlar davri. Mayda ishlab chiqarish tarmoqlari paydo bo'ladi, dexqonchilik va chorvachilik yanada chuqurroq rivojlanadi.

To'rtinchisi – sanoat inqilobi davr bosqich 500 yillar avval yuz berdi. Bu paytda kichik ishlab chiqarish tarmoqlar yangi ixtirolar qilinganligi sababli katta sanoatlar bilan almashadi. Bundan tashqari buyuk geografik kashfiyotlar boshlanishi bilan sanoat geografiyasi kengayadi.

Hozirgi davrda mikroelektronika, eelektron xisoblash texnikasi, atom va aerokosmonavtika, optika, organik sintez kimyosi, mikrobiologiya va boshqa sanoat tarmoqlari eng tez va barqaror rivojlanish sur'atlariga ega bo'lib, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya kabi yetuk rivojlangan mamlakatlarda ishlov beruvchi sanoat yalpi mahsulotning 35-40 % ini bermoqda. Mazkur guruh sanoat tarmoqlarining yana bir xususiyati ularning, asosan, iqtisodiy rivojlangan va yangi industrilashgan davlarda rivojlanganligidir. Shu sababli ularning, jaxon sanoati geografiyasiga ta'siri tuxtovsiz ortib bormoqda. Shu bilan birga sanoat umuman ancha murakkab tarkibga ega.

Yoqilg'i-energetika sanoati turli yoqilg'i (neft, gaz, ko'mir va boshqalar) va elektr energetika (issiqlik, gidro, atom elektr energetikasi) tarmoqlarini o'zida birlashtiradi.

Birlamchi energiya resurslari (neft, gaz, kumir, enuvchi slanets, torf va boshkalar)ning jaxonda ishlab chikarish va iste'mol kilish xajmi doimo usib bormokda.

Tarmoqning muhim xususiyatlaridan biri maxsulotlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish geografiyasi urtasidagi farqning kattaligidir. Buning isboti sifatida rakamlarga murojaat qilaylik. Aholisi 300 mld.dan ortiq kishi bo'lgan AQSh jaxonning barcha turdagi birlamchi energiya resurslarining 1/4 qismini iste'mol qilgan xolda aholisi 3 mlrd. kishidan ziyod rivojlanayotgan mamlakatlar birgalikda ana shuncha energiya vositalaridan foydalanmoqda, xolos. Agar jahonda har bir kishiga uo'tacha yiliga 2 tonna shartli yoqilg'i to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich AQShda 10 tonnaga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 0,7 tonnaga to'g'ri keladi.

XX-asr davomida jaxonning yoqilg'i-energetika balansi (YoEB)da xam katta siljishlar yuz berdi. Asrning birinchi bosqichida asosiy energetika vositasi sifatida ko'mirdan foydalanilgan. Bu davrda jaxon YoEBda ko'mirning xissasi 1913-yildagi 78%dan, 1950-yilda 55% gacha tebrandi. Bu birinchi bosqichni xaqli ravishda ko'mir davri deyish mumkin. Asrning ikkinchi yarmidan boshlab jaxon YoEB da ikkinchi bosqich – neft-gaz davri boshlandi. Buning asosiy sababi, birinchiidan, neft va gazning qattiq yokilgi turlari, jumladan, ko'mirga nisbatan eng samarali energiya vositasi ekanligi; ikkinchiidan, ularning ko'p yunalishli universal, shuning bilan birga nisbatan ekologik jixatdan toza energetika vositasi ekanligi; uchinchidan, qazib chiqarish rayonlaridan asosiy iste'molchi xududlarga ularni tashishning nisbatan kulayligi buldi. Jaxon energetikasi 80-yillar boshlaridan o'z taraqqiyotining uchinchii davriga qadam qo'ydi. Bu davrda, asosan, tugamaydigan va ayrim o'rni tiklanadigan resurslardan energiya vositasi sifatida qadamba qadam kengroq foydalanishga o'tila boshlanadi.

### **Amaliy ishning borishi**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. Sanoat tarmog'ining ilk G'arbiy Yevropa mamlakatlarida rivojlanishiga sabab nima?
2. Sanoat tarmoqlaridan qaysi birini qurish oson, kamxarj, ishlab chiqarish ko'p mehnat va texnologiya talab qilmaydi va uni deyarli barcha hududlarda qurish imkoniyatim bor?
3. Markaziy Osiyo malakatlarida qaysi sanoat tarmoqlari rivojlangan va har bir mamlakat sanoati ixtisoslashuvining sababi nima?
4. Xalq xo'jaligi tarmoqlari deganda nimani tushunasiz?

#### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Sanoat tarmoqlari fan-texnika taraqqiyotiga kuchli ta'sir qiladi. XIX-XX asrlarda sanoat tarmoqlarining qaysi sohalari rivojlanishiga FTI yutuqlari kuchli ta'sir qilaganlaigini amaliyot daftariga yozing.
2. Sanoat tarmoqlarining
  - A. Eski.
  - B. Yangi.
  - C. Eng yangi guruhlarini ajrating va ularni tahlil qiling.



3. Ishlab chiqarishni tashkil qilishda kompleks avtomatlashtirish, mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirish va ichki, tashqi fan-texnika yutuqlaridan foydalanishning iqtisodiy-siyosiy ahamiyatini yoritish.

4. Xalq xo'jaligining tarmoqlari tarkibi:

**Sanoat:**

**A. Og'ir sanoat**

Elektroenergetika  
Yoqilg'i sanoati  
Metallurgiya  
Mashinasozlik  
Kimyo sanoati  
Qurilish materiallari sanoati

**B. Yengil va oziq-ovqat sanoati**

To'qimachilik  
Ko'n-poyafzal ishlab chiqarish  
Jun-shoyi matolar ishlab chiqarish  
Yog'-moy ishlab chiqarish  
Un-yorma ishlab chiqarish  
Go'sht sanoati

**Qishloq xo'jaligi:**

**A. Dehqonchilik**

Donli ekinlar  
Texnik ekinlar  
Sabzavot-poliz ekinlari  
Meva –uzum yetishtirish  
Ildiz mevali ekinlar  
Quvvat beruvchi ekinlar

**B. Chorvachilik**

Qoramolchilik  
Qoychilik  
Echkichilik  
Parrandachilik  
Pillachilik  
Baliqchilik

**Transport tarmoqlari:**

**A. Dengiz transporti**

**B. Havo transporti**

**C. Quruqlik tarnsporti**

Tarmoqlarini tahlil qilish

5. O'zbekiston respublikasi iqtisodiy kartasini tahlil qilish. Bunda shartli belgilar yordamida O'zbekiston respublikasi miqyosida yalpi mahsulot hajmi bo'yicha sanoat, sanoat tarmoqlari tarkibi, issiqlik elektr stansiyalari, qishloq xo'jalik ekin maydonlariniviloyatlar bo'yichha tahlil qilish.

6. O'zbekiston respublikasining sanoat tarmoqlari tarkibi diagrammasini chizish va o'rganish.

7. O'zbekiston respublikasi iqtisodiy kartasini chizish.

**1-jadval**

**O'zbekiston sanoatining tarmoqlar tarkibi**

Sanoat tarmoqlari	Jamiga nisbatan foiz
Elektr energetika	10,2
Yoqilg'i sanoati	13,3
Rangli metallurgiya	8,9
Qora metallurgiya	1,0
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	11,7
Kimyo- va neft-kimyo sanoati	5,4
Yog'ochsozlik va selyuloza qog'oz sanoati	1,2
Qurilish materiallari sanoati	5,5

Oyna, chinni, fayans buyumlari sanoati	0,3
Yengil sanoat	17,3
Oziq-ovqat sanoati	13,6
Un tortish, yorma-omuxta sanoati	9,0
Boshqa sanoat tarmoqlari	2,6

### **3-mavzu: Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari.**

#### **Reja:**

1. Mujassamlashuv.
2. Ixtisoslashuv.
3. Kooperatsiya.
4. Kombinatsiya.

**Ko'rgazmali qurollar:** Ma'ruza matni, Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari chizmasi, o'quv materiallari, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, rangli markerlar.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari: Mujassamlashuv, Ixtisoslashuv, kooperatsiya, markazlashuv haqida ma'lumotga ega bo'lish.

#### **Mavzuning nazariy qismi**

Ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, ularda samaradorlikni oshirish uchun ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari bo'lgan mujassamlashuv (kontsentratsiya), ixtisoslashuv (spetsializatsiya), kooperatsiya va kombinatlashuv usullaridan foydalanish ijobiy natija beradi. Yuqorida ko'rsatilgan shakllar orasida mujassamlashuv asosiy o'rin tutadi.

**Mujassamlashuv** mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarish va ishchi kuchini biron bir hududda to'planishi. Mujassamlashuv yoki ishlab chiqarishning to'planishi, yig'ilishi iqtisodiyotning barcha turlariga tegishlidir. Asosan sanoat, qishloq xo'jaligi, transport kabi moddiy ishlab chiqarish sohalarida namoyon bo'ladi.

**Markazlashuv** - ishlab chiqarish korxonalarini va sohalarini asosan birgina shaharda to'planishi tushuniladi. Bu esa o'z navbatida monopolizatsiyani yuzaga keltirishi mumkin. Fikrimizcha, bu ko'rinish O'zbekiston uchun hozirda erkin bozor munosabatlarini yo'lgan qo'yish, turli tarmoqlar sohalarida raqobatni yuzaga keltirish uchun harakat qilinayotgan davrda ayniqsa tug'ri kelmaydi. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllaridan yana biri ixtisoslashuvdir.

**Ixtisoslashuv** – biron-bir mahsulot turini yoki uning qismlarini ma'lum hududdagi sanoat tarmoqlari, korxonalarida yaratilishi. U mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning tarkib topishi bilan bog'liq.

Ixtisoslashuv tufayli iqtisodiyotning turli tarmoqlari vujudga keldi, iqtisodiy rayonlar shakllanadi. Geografik mehnat taqsimotining yuzaga kelishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

**Kooperatsiya** (lotincha “kooperation” – hamkorlik) – muayyan mahsulot yaratish uchun turli korxonalarining xamkorligi. Unda hududiy birlik, barcha ixtisoslashgan korxonalarining bir joyda joylashuvi ko'zga tashlanmaydi. Balki ularning tarqoq holda joylashuvi kuzatiladi. Biron turdagi mahsulot ishlab chiqarish jarayonining holatiga qarab kooperatsiyada qatnashuvchi korxonalar soni turlicha bo'lishi mumkin.

**Kombinatlashuv** (lotincha “kombination” – birlashgan) – ma'lum turdagi xom ashyoni chuqur texnologik qayta ishlash, uning chiqindilaridan to'la foydalangan holda barcha mahsulotlar ishlab chiqarish. Ushbu holatda kombinatlashuv kooperatsiyaning teskari ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Ular hududiy umumiylikka egaligi bilan ajralib turadi. Kombinatlashuvda bir turdagi xom ashyo mavjud bo'lib, undan olinadigan mahsulot turi ko'pligi bilan ajralib turadi. Kombinatlashuv mujassamlashuv kabi ko'proq sanoatda yaqqol namoyon bo'ladi.


### **Amaliy ishning borishi**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari qaysilar?
2. Iqtisodiy rayonlarni vujudga kelishidagi qaysi ijtimoiy shakl muhim rol o'ynaydi?
3. Ixtisoslashuvning necha bosqishi va necha turi mavjud?
4. Dunyo miqyosidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini yetishtirishga ixtisoslashgan mamlakatlarga misollar keltiring.
5. Qaysi sanot tarmog'ida kooperatsiya jarayoni yaxshi ko'zga tashlanadi va buning sababi nima? Misollar keltiring
6. Mujassamlashuvning salbiy va ijobiy oqibatlarini tushuntiring.
7. Dunyo miqyosidagi sanoatning ayrim mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mamlakatlarga misollar keltiring.
8. Kombinatsiya va kooperatsiya jarayonlarining farqli jihatlarini izohlang.

#### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllaridan mujassamlashuv jarayonini izohlang.
2. Viloyatingizdagi yirik kombinatlarga misollar keltiring va ularning ishlab chiqarish jarayonini izohlang.
3. Xalq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarga qarab mashinasozlik tarmog'ining ixtisoslashuvini mamlakatlar misolida tahlil qiling.
4. Viloyatingizdagi sanoat tarmoqlarining mujassamlashuv jarayonini izohlang. Misollar keltiring



#### 4-mavzu: Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar

##### Reja:

1. Respublika sanoatini rivojlantirish va joylashtirishga ta'sir etadigan asosiy tabiiy omillar.
2. Iqtisodiy ijtimoiy omillarning sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etishdagi ahamiyati.
3. O'zbekiston respublikasi tabiiy kartasini tahlil qilish va foydali qazilma konlarining joylashuvini o'rganish.

**Ko'rgazmali qurollar:** Dunyo siyosiy-ma'muriy kartasi, O'zbekiston tabiiy kartasi, yozuvsiz karta, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar jadvali.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda sanoat rivojlanishining darajasi va sur'atlari, sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida ma'lumotga ega bo'lish.

##### Mavzuning nazariy qismi

A.K.Bedrinsev ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishi asosida «...Xo'jalikni hududiy tashkil qilishning yuqori samaradorligiga erishish rayon majmuasining zaruriy korxonalari mavjudligi, tabiiy va iqtisodiy

sharoitlar, zaruriy ishlab chiqarish tajribasi va transport xamda boshqa infrastruktura vositalariga bog'liq tarmoqlarning optimal hududiy texnologik sxemasi asosida erishiladi...» degan xulosaga keladi.

Sanoat tarmoqlarini joylashtirishda ishtirok etadigan omillar ta'sirini tahlil etish asosida quyidagi guruhlarga ajratish mumkin (A.T.Xrushchev):

1. Materialni (xom ashyoni) ko'p talab qiladigan tarmoqlar.
2. Energiyani ko'p talab qiladigan tarmoqlar.
3. Mexnat resurslarini ko'p talab qiladigan tarmoqlar.

Materialni (xom ashyoni) ko'p talab qiladigan tarmoqlar xom ashyo va maxsulot ishlab chiqarish uchun ketadigan asosiy materiallarni ko'p sarflashi bilan ajralib turadi. Ko'pgina tarmoqlarda xom ashyo salmog'i tayyor maxsulotga qaraganda ortiqroq bo'ladi. Bularga metallurgiya majmui, mashinasozlik, o'rmon va yog'ochsozlik sanoati kabilar kiradi.

Energiyani ko'p talab qiladigan tarmoqlar mahsulot ishlab chiqarishda elektr, yoqilg'i, issiqlik ko'p iste'mol qilishi bilan ajralib turadi. Bularga rangli metallurgiyaning alyuminiy va titan ishlab chiqarish sanoatlari, kimyo sanoatining kimyoviy tolalar, sintetik kauchuk ishlab chiqarish kabi tarmoqlar kiradi.

Mexnat resurslariga ishlab chiqarish mahsulot birligiga to'g'ri keladigan ishchi kuchi sarfiga ko'ra aniqlanadi. Ishchi kuchi to'plangan hududlarda joylashtirish zarur bo'lgan tarmoqlarga mashinasozlik, engil sanoat, kimyo sanoatining ba'zi tarmoqlari bu guruhga misol bo'la oladi.

So'nggi yillarda sanoat tarmoqlarini hududiy joylashtirishda I.A.Rodionova fikricha, iste'molchi omili ta'sirini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, mebel, non va non mahsulotlari ishlab chiqarish kabi tarmoqlar aynan mazkur omil ta'siri natijasida rivojlanadi.

### **Amaliy ishning borishi**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. O'zbekiston respublikasida tog'-kon sanoatining rivojlanishida qanday tabiiy resurs konlarining mavjudligi ahamiyatlidir?
2. Elektr energetika ta'minoti qaysi sanoat tarmoqlarini joylashtirishda yetakchi ahamiyatga ega?
3. Ekologik jihatdan nomaqbul korxonalariga misollar keltiring va bu masalada respublikamizda amalgam oshirilayotgan qanday chora-tadbirlarni bilasiz?
4. Iqtisodiy ijtimoiy imillardan eng muhim omilni ajrating va buning sababini izohlang?
5. Transport tarmoqlarining rivojlanish sur'ati sanoat tarmoqlarining taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

#### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. O'zbekiston respublikasida sanoat tarmoqlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi tabiiy omillar, tabiiy sharoit, hudud iqlimi va orografik tuzilishi, suv

resurslarining mavjudligi va gidrografiya ob'yektlari zichligining iqtisodiyot sohalariga ta'sirini amaliyot daftariga yozish. Yirik sug'orish inshootlari: kanallar, suv omborlari, kollektor-drenaj quvurlarining sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritish.

2. Dunyo mamlkatalarida noan'anaviyenergiya manbalari: suv, quyosh, shamol energiyalaridan foydalanish usullarini yoritish.

3. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar jadvalini tahlil qilish va Navoiy viloyati misolida ayrim korxonalarining hududiy joylashuviga ta'sir etgan omillarni izohlash.

## 2-jadval



### Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar

Mahsulotlar va tarmoqlar	Xom ashyo	Yoqilg'i-energetika	Ishchi kuchi	Suv	Transport	Ekologiya	Iqtisodiy geografik o'rin	Iste'mol
Alyuminiy	+	++						
Misni tozalash		++						
Cho'yan	+	++						
Temir qotishmalari	+	++		+				
Po'lat	+	+						
Kaliy o'g'iti	++					+		
Fosfor o'g'iti	+					+		+
Azot o'g'iti	+					+		++
Sintetik tola		++				+		
Qishloq xo'jalik mashinalari								++
Radio, priborsozlik, aniq mashinasozlik			+				++	
Selyuloza-qog'oz sanoati	+			+	+			+
Sement	+							
Paxta tolasi	++				+	+		+
To'qimachilik sanoati	+		+		+			
Paxta yog'i	++							
Go'sht	+					+		+
Sut	+							+

Izoh: ++ hal qiluvchi ta'sir, + kuchli ta'sir

4. O'zbekiston respublikasi tabiiy kartasini tahlil qilish. Foydali qazilma konlarini o'rganish va bu konlar asosida tashkil etilgan sanoat korxonalarining ishlab chiqarish xususiyatlarini o'rganish. Foydali qazilma konlari ro'yxatini tuzish.

5. Dunyo miqyosida tabiiy resurslar asosida iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar ro'yxatini tuzish.



## **5-mavzu: Sanoat tarmoqlarini tashkil etish va rivojlantirish asoslari**

### **Reja:**

1. O'zbekiston sanoatining tarmoqlar tarkibi.
2. O'zbekiston respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha sanoat tarmoqlarining hududiy tarkibi.
3. Dunyo miqyosida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari bo'yicha mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi.

**Ko'rgazmali qurollar:** 9-sinf atlas, O'zbekiston respublikasi sanoatining hududiy tarkibi va rivojlanganlik darajasi jadvali, adabiyotlar.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etish to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish. Respublikamiz viloyatlarida sanoatning hududiy rivojlanganlik darajasi bilan tanishish.

### **Mavzuning nazariy qismi**

Viloyatlar iqtisodiy salohiyatini shakllanishi va yuksalishida eng avvalo sanoat ishlab chiqarishining o'rni salmoqlidir. Viloyatlardagi mavjud sanoat o'zining hududiy mujassamlashuvi va ixtisoslashuviga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Biroq, bunday tafovutlar uncha kuchli emas. Viloyatlar sanoatining tarmoqlar bo'yicha tahlili shundan dalolat beradiki, barcha hududlarda ko'proq yengil va oziq-ovqat sanoatlari nisbatan yaxshi rivojlangan. Shu bilan birga ayrim viloyatlarda tog'-kon, kimyo, mashinasozlik va qurilish materiallari sanoati ham biroz taraqqiy etgan. Chunonchi rangli metallurgiya Navoiy, Toshkent va qisman Jizzax viloyatlarida, qora metallurgiya asosan Toshkent viloyatida, kimyo sanoati Toshkent, Navoiy va Farg'ona viloyatlarida mavjud. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati Toshkent, Andijon va qisman Namangan hamda Samarqand viloyatlarida, qurilish materiallari sanoati Toshkent Farg'ona, Navoiy viloyatlarida rivojlangan.

### **Amaliy ishning borishi**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. O'zbekistonda qanday sanoat tarmoqlari yetakchi mavqega ega?
2. Rangli metallurgiya sanoati rivojlangan viloyatlarni ayting.
3. Kimyo sanoati respublikamizning qaysi hududlarida taraqqiy etgan?
4. Yengil sanoat tarmog'ining mamlakatimizning barcha hududlarida tarkib topganligiga sabab nima?
5. Toshkent va Farg'ona viloyatlarida qaysi sanoat tarmoqlari majmua tarzida shakllangan?
6. Mamlakatda yalpi sanoat mahsuloti hajmiga ko'ra qaysi viloyatlar yetakchi?

#### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi sanoatining hududiy tarkibi va rivojlanganlik darajasi jadvalini tahlil qilish. Bunda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish



ko'rsatkichlari, sanoatning mujassamlashuv darajasi, rivojlanganlik darajalari bo'yicha diagrammalar tuzish

3-jadval

**O'zbekiston Respublikasi sanoatining hududiy tarkibi va rivojlanganlik darajasi**

Viloyatlar	Maydon i res. Nis. Foiz his.	Aholisi ming kishi	Sanoat mahsuloti		Sanoatning mujassamlashuv darajasi		Rivojlanganlik darajasi
			Foiz his.	Res Nis.	Maydoni ga nis.	Aholisiga nis.	
<b>Qoraqalpog'iston respublikasi</b>	26,9	1459,1	6,2	2,7	0,07	0,43	11
<b>Andijon viloyati</b>	0,9	2114,9	8,9	5,5	6,14	0,62	8
<b>Buxoro viloyati</b>	8,8	1380,8	5,8	4,3	4,89	0,74	7
<b>Jizzax viloyati</b>	4,6	923,3	3,9	1,5	0,33	0,38	13
<b>Navoiy viloyati</b>	24,8	768,1	3,2	10,3	0,41	3,22	1
<b>Namangan viloyati</b>	1,8	1858,0	7,8	4,3	2,39	0,55	9
<b>Samarqand viloyati</b>	3,7	2586,7	10,8	4,4	1,19	0,41	12
<b>Sirdaryo viloyati</b>	1,1	648,0	2,7	1,3	0,28	0,48	10
<b>Surxondaryo viloyati</b>	1,6	1666,4	6,9	2,6	2,36	0,38	14
<b>Toshkent viloyati</b>	3,5	2303,3	9,8	16,7	4,77	1,70	3
<b>Farg'ona viloyati</b>	1,6	2585,9	10,9	15,6	9,75	1,43	4
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	6,3	2075,8	8,6	10,7	1,70	1,24	5
<b>Xorazm viloyati</b>	1,4	1276,5	5,3	4,5	3,21	0,85	6
<b>Toshkent shahri</b>	0,0	2125,5	9,2	15,6	-	1,70	2
<b>O'zbekiston respublikasi</b>	100,0	23772,3	100,0	100,0	7,0	1,00	

2. Har bir viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan yirik sanoat korxonalari , qo'shma korxonalar ro'yxatini tuzish.

4. Dunyo miqyosida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi kartasini tahlil qilish. Bunda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari bo'yicha mamlakatlar ro'yxatini tuzish.

## 6-mavzu: Yoqilg'i-energetika majmuasi

### Reja:

1. Respublika elektroenergetika sanoati
2. O'zbekistonning yoqilg'i sanoati.
3. Dunyo elektroenergetika va yoqilg'i sanoati tarmoqlarini tahlil qilish.

**Ko'rgazmali qurollar:** Ma'ruza matni, O'zbekistonning elektroenergetika kartasi, o'quv materiallari, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, rangli markerlar

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** O'zbekistonning yoqilg'i-energetika sanoati xususiyatlarini o'rganish. Og'ir sanoat tarmoqlarida bo'lib o'tgan asosiy tarkibiy o'zgarishlarni tushuntirish.

### Mavzuning nazariy qismi:

Yoqilg'i-energetika majmui – yoqilg'i-energetika resurslarini qazib olish va qayta ishlashni, foydalanish uchun ularni qulay shaklga keltirish va iste'molchilarga etkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar, korxonalar va inshootlar majmui.

Olovning kashf etilish davridan boshlab, har bir o'tgan tarixiy davrlarda biron turdagi yoqilg'i-energetika resurslari jamiyat taraqqiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1500 yillarda energiya mahsulotlari iste'molining 70%ni o'tin, 20%ni organik qoldiqlar hamda 10% inson kuchi iborat bo'lgan. 2000 yillarga kelib esa iste'mol tarkibi neft (38,6%), ko'mir (28,7%), tabiiy gaz (22,1%), yadro energiyasi (6,9%) va gidroenergiyadan (3,7%) tashkil topdi. Shu tarzda davrlar davomida jahon yoqilg'i-energetika balansi<sup>2</sup> o'zgarib bordi. Balansdagi keskin o'zgarishlar, ayniqsa, XX asrda yuz berdi.

1 kg shartli yoqilg'i (odatda 1 kg toshko'mirga teng) 29,3 MJ (yoki 7000 kkal/kg)ga teng bo'lib, uning issiqlik koeffitsienti 1,0ni tashkil etadi. Neft va gazda bu ko'rsatkich nisbatan yuqori (issiqlik koeffitsienti 1,5) bo'lsa, qo'ng'ir ko'mir, torf, o'tin, yonuvchi slanets kabi yoqilg'i xom ashyo turlarida ancha pastligi bilan ajralib turadi. Ular orasida uran mazkur koeffitsient bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega. 1 kg uran yoqilg'isidan 3000 tonna ko'miran olinadigan energiyaga teng quvvat hosil bo'ladi.

Jahon yoqilg'i-energetika balansi (fransuzcha – balansye - tarozi) – muayyan vaqt davomida davlat hududida yoqilg'i va energiyani ishlab chiqarish va chiqarish oralig'idagi nisbat.

Xitoy, AQSH, Rossiya va Hindiston kabi davlatlar jahonda ko'mir qazib olish bo'yicha etakchi bo'lib hisoblanadi. Jahon mintaqalari orasida ko'mir qazib olish hajmi Osiyo, Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropada yuqori.

Jahon bozorida yiliga taxminan 1 mlrd.t neft xom ashyosi sotiladi. Uning 2/3 qismi OPEK tashkilotiga a'zo davlatlarda qazib olinadi. Bundan tashqari, Rossiya, Buyuk Britaniya, Meksika davlatlari ham yirik neft eksportyorlari hisoblanadi.

Yaponiya, AQSH, G'arbiy Yevropa davlatlari, Xitoy esa asosiy neft sotib oluvchi davlatlar guruhini tashkil etadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, gazning umumiy geologik zahirasi 150-170 trillion m<sup>3</sup>ni tashkil etadi. Gaz qazib olish bo'yicha Shimoliy Amerika, MDH, Osiyo mintaqalari, Rossiya, AQSH, Kanada kabi davlatlar etakchi bo'lib hisoblanadilar. O'zbekistonda tabiiy gaz 1932 yildan boshlab qazib olinadi. 1962 yil Gazli gaz-neft konining ochilishi bilan gaz sanoati tez rivojlanib ketdi.

Jahonda elektr energiya ishlab chiqarish 1950 yilga nisbatan 17 marotaba o'sdi (965 mlrd kVt/s dan 17 trln kVt/s gacha). Dastlabki IES 1882 yil N'yu-York shahrida qurilgan. Dunyodagi birinchi AES sobiq SSSRning (hozirda Rossiya Federatsiyasi) Obninsk shahrida ishga tushirilgan (quvvati 5 MVt). Hozirgi kunda jahon 440 ta energoblok faoliyat olib bormoqda. Ular yiliga 15 mlrd kVt/s elektr energiya ishlab beradi (jahonda bir yilda ishlab hiqariladigan energiyaning 17 %). Eng yirik AESlar AQSH, Frantsiya, Yaponiya, GFR,

Rossiya davlatlari hududida joylashgan. Bu ko'rinishdagi elektr stantsiyalarda energiya ishlab chiqarish salmog'i Litva, Frantsiya, Slovakiya kabi davlatlarda yuqori.

### **Amaliy ishning borishi**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. O'zbekistonda qancha gidroelektr va issiqlik elektr stansiyalari mavjud?
2. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning qancha qismi qaysi viloyatlarga tog'ri keladi?
3. O'zbekiston sanoatida yoqilg'i sanoatining ulushi qanchaga teng?
4. Yoqilg'i sanoati qanday tarmoqlardan tashkil topgan?
5. O'zbekistonda elektorenergetika sanoatining rivojlanishi qaysi davrga to'g'ri keladi?
6. Yoqilg'i sanoati tarkibida dastlab qaysi soha va hozirgi kunda qaysi tarmoq keng rivojlanib bormoqda? Buning sababini tushuntiring.
7. Yirik issiqlik elektr stansiyalari qaysi shaharlarda barpo etilgan? Ularning ishlab chiqarish quvvatini izohlang.
8. O'zbekistonda qaysi shaharlarda neftni qayta ishlash korxonlari bor va ularning quvvati qancha?
9. Yirik gidroelektr stansiyalari respublikamizning qaysi hududida tarkib topgan? Ularning ishlab chiqarish quvvati qanday?
10. Energiya olishning noan'anaviy shakllari qaysi mamlakatlarda taraqqiy etgan? Misollar keltiring.

#### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. O'zbekistonning elektroenergetika kartasini chizing va tahlil qiling.
2. Dunyo miqyosida yirik elektr quvvati ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi mamlakatlarning ishlab chiqarish xususiyatlarini tushuntiring.
3. O'zbekistonning yoqilg'i sanoati kartasini chizing va tahlil qiling. Dunyo miqyosida yoqilg'i sanoati rivojlangan mamlakatlar va ularning ishlab chiqarish xususiyatlarini tahlil qiling. Neft, gaz, ko'mir ishlab chiqarish va eksporti bo'yicha birinchi o'nlik mamlakatlar ro'yxatini tuzing.

## 7-mavzu: Metallurgiya majmui

### Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi qora metallurgiya sanoati.
2. Rangli metallurgiya sanoati.
3. Dunyo metallurgiya sanoatining hududiy xususiyatlarini o'rganish.

**Ko'rgazmali qurollar:** Ma'ruza matni, O'zbekistonning qora va rangli metallurgiya kartasi, o'quv materiallari, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, rangli markerlar

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Respublika hududida rangli va qora metallurgiya tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlarini o'rganish.

### Mavzuning nazariy qismi

**Metallurgiya** – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, yerdan qazib chiqaraman degan ma'noni bildiradi. Qora metallurgiya tarmoqlarida yiliga o'rtacha 1 mlrd tonnadan ortiq po'lat quyiladi. Sohada asosiy mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy, Yaponiya, AQSH, Rossiya kabi davlatlar etakchilik qiladi. V.P.Maksakovskiy fikricha, rangli metallurgiyaning rivojlanish davrini uch bosqichga ajratish zarur. Bular:

- birinchi bosqich, XX asrning birinchi yarmida asosan og'ir metallar hisoblangan mis, rux, qo'rg'oshin, qalayi qayta ishlangan;

- ikkinchi bosqich, 1950-1975 yillar oralig'ida alyuminiy, magniy, titan kabi engil metallarni qayta ishlashga katta e'tibor qaratilgan. Buning natijasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmiga ko'ra alyuminiy sanoati tarmoq sohalari ichida birinchi o'ringa ko'tarildi;

- uchinchi bosqich, 1975 yillardan to hozirga qadar davom etib kelayotgan bu bosqichda yuz bergan energetik va xom ashyo inqirozi, atrof muhitni muhofaza qilish chora tadbirlarining kuchayishi kabi jarayonlardan kelib chiqqan holda asosan legirlovchi (vol'fram, vanadiy, molibdne, tantal, niobiy), kam tarqalgan (vismut, kobal't), tarqoq (germaniy, selen, tsirkoniy) turdagi "XX asr metallari"ni qayta ishlash muhim sohaga aylandi. SHu bilan birga, barcha bosqichlarda bo'lgani kabi bu bosqichda ham qimmatbaho (oltin, kumush, platina) metallarni ishlab chiqarishga bo'lgan talab ortib bordi. Bundan tashqari, ikkilamchi xom ashyodan keng foydalanish yo'lga qo'yildi.

Katta ettilik davlatlari, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Braziliya, Venesuela kabi davlatlar jahon bo'yicha rangli metallarni eng ko'p ishlab chiqaruvchi markazlar hisoblanadilar.

### Amaliy ishning borishi

#### Mavzuga oid savollar:

1. Metallurgiya sanoati qanday tarmoqlardan iborat?
2. Respublikamizda rangli metallurgiya sanoatining yalpi sanoat mahsulotlari ichidagi ulushi qanchani tashkil qiladi?
3. Bekobod metallurgiya kombinati qachon tashkil etilgan?
4. Qora metallurgiya sanoati xom ashyosi nima?

5. Rangli metallarning: yengil, og'ir, qiyin eruvchi, qimmatbaho, nodir metallar kabi guruhlarini ajrating va ularga misollar keltiring.
6. Respublikamizda oltin sanoatining rivojlanishi va hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan korxonalarni izohlang.
7. Bekobod metallurgiya korxonasining elektr energiya va xom ashyo manbalarini tushuntiring.
8. Respublikamizda rangli metallurgiya sanoatining rivojlanish sabablarini izohlang.
9. Yirik rangli metallurgiya korxonalari joylashgan hududlar va bu korxonalar qaysi konlardan xom ashyo yetkazilishini izohlang.
10. Qora metallurgiya sanoati rivojlangan mamlakatlarga misollar keltiring.

### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. O'zbekistonning rangli metall konlarini kartaga tushiring va konlar ro'yxatini tuzing.
2. O'zbekistonning metallurgiya kartasini chizing va tahlil qiling.
3. Dunyoning temir, marganets, nikel, rux va qalay, mis, xrom, boksit ishlab chiqaruvchi birinchi o'nlik mamlakatlari ro'yxatini tuzing.
4. Dunyoning qora va rangli metallurgiya sanoati kartasini chizing va tahlil qiling.

## **8-mavzu: Mashinasozlik majmuasi.**

### **Reja:**

1. Qishloq xo'jaligi mashinasozligi sanoati
2. Elektronika va radiotexnika, priborsozlik sanoati.
3. Avtomobilsozlik sanoati.

**Ko'rgazmali qurollar:** Ma'ruza matni, O'zbekistonning mashinasozlik va metallni qayta ishlash kartasi, o'quv materiallari, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, rangli markerlar

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Respublika hududida elektronika, radiotexnika, priborsozlik, avtomobilsozlik sohalarining rivojlanishini o'rganish.

### **Mavzuning nazariy qismi**

Mashinasozlik jahon qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari orasida ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi va mazkur tarmoqda band aholi soniga ko'ra oldingi o'rinda turadi. XXI asr boshlariga kelib ushbu majmua korxonalarida umumiy jahon sanoat mahsulotining 35% yaratilib, unda jami bandlarning 27% faoliyat ko'rsatgan.

**1. Stanoksozlik** Jahon stanoksozligi peshqadamlari bo'lib Yaponiya, GFR, Italiya, Xitoy, Tayvan', AQSH kabilar hisoblanadi. Uchta davlatda (Yaponiya, GFR, AQSH) ishlab chiqariladigan stanok va turli asbob uskunalarning 50%ni beradi. Mintaqalar ichida G'arbiy Evropa etakchilik qiladi.

**2. Kemasozlik** Yiliga 1500 donadan ortiq turli ko'rinishdagi kemalar ishlab chiqariladi. Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy jahon kemasozligi etakchilari

hisoblanadi. Mintaqalar bo'yicha Osiyo oldingi o'rinda turadi. Ushbu mintaqa barcha ishlab chiqariladigan kemalarning 80%ni beradi.

**3. Avtomobilsozlik** – mashinasozlik majmuasining eng muhim tarmog'i hisoblanib, jahon xo'jaligida ta'sir doirasi jihatidan neft sanoatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mazkur tarmoqqa 1886 yil nemis injeneri Karl Bents tomonidan asos solingan. "Djeneral motors", "Toyota", "Ford motor", "Fol'ksvagen", "Daymler-Kraysler" kabi jahonning yirik TMKlari yillik ishlab chiqariladigan avtomobillarning 80%ga yaqinini beradi. Tarmoq ishlab chiqaradigan mahsulotlarning 70% engil avtomobillarga, qolgan qismi esa engil va og'ir yuk tashuvchi maninalarga to'g'ri keladi. Engil avtomobillar ishlab chiqarish bo'yicha AQSH, Yaponiya, GFR, Xitoy, Koreya Respublikasi kabi davlatlar katta salmoqqa ega. Engil yuk mashinalari AQSH, Xitoy, Kanada, Yaponiya, Meksika, og'ir yuk mashinalari Yaponiya, Xitoy, AQSH, Hindiston, GFR kabi davlatlarda ko'p ishlab chiqariladi.

**4. Aviaraketa va kosmik sanoati** 20 davlatga qarashli 80 ta firma mazkur tarmoq tarkibida faoliyat olib borib, TMKlar orasida "Boing" (AQSH), "EADS" (Frantsiya), "Lokxid-Martin" (AQSH) kabilar oldingi o'rinlarda turadi. AQSH, Rossiya, Frantsiya kabi davlatlar yo'lovchi tashuvchi samolyotlar ishlab chiqarishda peshqadam bo'lsa, hvrbiy samolyotlar ishlab chiqarishda AQSH va Rossiyaga tenglasha oladigan davlatlar yo'q.

**5. Elektronika va elektrotexnika** – ishlab chiqarayotgan mahsulotlari tannarixiga ko'ra avtomobilsozlik bilan tenglasha oladigan mashinasozlik majmuasi tarmog'i. Alohida tarmoq sifatida XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida shakllangan. Maishiy elektrotexnika buyumlari ishlab chiqarish XIX asrning oxirlarida radioning kashf etilishi bilan boshlangan bo'lib, radiopriyomniklar ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy, Malayziya, Meksika, Yaponiya, AQSH, televizorlar ishlab chiqarish bo'yicha esa Yaponiya, Malayziya, Koreya Respublikasi, AQSH, Xitoy kabi davlatlar etakchilik qiladilar.

Elektron sanoat tarkibida axborotni qayta ishlovchi elektron vositalar ishlab chiqarish (EHM) va aloqa vositalari ishlab chiqarish sohalari keng rivojlangan. AQSH, Yaponiya, G'arbiy Evropa davlatlari bu tarmoqda asosiy mahsulot tayyorlab beruvchi davlatlar hisoblanadi. Umumiy mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra AQSH, Yaponiya, GFR kabi rivojlangan davlatlar oldingi o'rinlarda turadi.

### **Amaliy ishning borishi**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. Mashinasozlik sanoati qanday tarmoqlardan tashkil topgan?
2. Mashinasozlik sanoatining respublika yalpi sanoat tarkibidagi ulushi qancha?
3. Respublikamizda mashinasozlikning qanday tarmoqlari rivojlangan?
4. Radiotexnika va priborsozlik sanoati korxonalarini qaysi shaharlarda mujassamlashgan? Buning sababini izohlang.

5. Kimyo va neft-kimyo mashinasozligining qanday tarmoqlari mavjud? Ularning ishlab chiqarish xususiyatlarini tushuntiring.

6. O'zbekistonda avtomobilsozlik tarmog'ining rivojlanish sabablari va istiqbollari tushuntiring.

7. To'qimachilik mashinasozligi rivojlangan korxonalar va ularning ishlab chiqarish xususiyatlarini ta'riflang.

8. Respublikamizda samolyotsozlik tarmog'ining rivojlanish xususiyatlarini izohlang.

### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Dunyo miqyosida qayta ishlovchi tarmoq tarkibida mashinasozlik rivojlangan hududlarni ajrating. Yirik shaharlar ro'yxatini tuzing.

2. O'zbekistonning mashinasozlik kartasini chizing va tahlil qiling.

3. Dunyo miqyosida yengil va yuk avtomobillari eksporti va importi bo'yicha birinchi o'nlik mamlakatlar ro'yxatini tuzing.

4. Dunyo mashinasozlik kartasini chizing va tahlil qiling.

## **9-mavzu: Kimyo majmuasi**

### **Reja:**

1. O'zbekiston kimyo majmuasining tarmoq tarkibi.

2. Kimyo sanoatining hududiy rivojlanishi.

3. Dunyo kimyo sanoatining yirik markazlarini tahlil qilish.

**Ko'rgazmali qurollar:** Ma'ruza matni, Dunyoning kimyo sanoati kartasi, o'quv materiallari, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, rangli markerlar

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Respublika kimyo sanoati tarmoqlarining tarmoq tarkibini o'rganish. Mamlakatimizda kimyo sanoatining hududiy rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish.

### **Mavzuning nazariy qismi**

Kimyo sanoati tarkibi quyidagicha shakllanadi: Tog'-kimyo sanoati, bu tarmoq kimyo sanoati uchun xom-ashyo hisoblanuvchi apatit, fosforit, oltingugurt, osh tuzi, kaliy va glauber tuzlarini qazib olishni tashkil qiladi.

1. Asosiy kimyo sanoati. Uning tarkibiga:

a) kislotalar, tuzlar va ishqor ishlab chiqarish;

b) mineral o'g'itlar ishlab chiqarish kabilar kiradi.

3. Organik sintez kimyosi.

4. Polimerlar kimyosi (sun'iy tolalar, plastmassa va sintetik kauchuk ishlab chiqarish).

5. Polimerlarni qayta ishlash (plastmassa buyumlar, rezina va rezina buyumlar ishlab chiqarish).

6. Nafis kimyo. Uning tarkibiga:

a) farmasevtika sanoati

b) parfyumeriya sanoati kabilar kiradi.

7. Maishiy kimyo (yuvish vositalari, lak va bo'yoqlar ishlab chiqarish).

Jahon kimyo sanoatida to'rt asosiy mintaqa ajralib turadi: AQSh, Yevropa, Sharqiy Osiyo va MDH.

Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish dunyo bo'yicha yiliga 150 mln tonnani tashkil etadi. Bunday davlatlar:

1. Xitoy (30 mln dan ortiq);
2. AQSh (20 mln t. Atrofida);
3. Hindiston (15 mln t atrofida). Ulardan keyingi o'rinda Kanada, Rossiya, Germaniya, Belorussiya, Indoneziya, Fransiya, Ukraina, Pokiston va Isroil kabi davlatlar turadi.

#### 4-jadval

### Mineral o'g'it ishlab chiqaruvchi mamlakatlar (XXI asrning birinchi o'n yilligi)

Fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish			Azotli o'g'itlar ishlab chiqarish			Kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish		
T/r	mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)	T/r	mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)	T/r	mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)
1	AQSh	8,0	1	Xitoy	23,6	1	Kanada	10,2
2	Xitoy	7,9	2	Hindiston	10,6	2	Rossiya	5,3
3	Hindiston	3,9	3	AQSh	9,4	3	Belorussiya	4,0
4	Rossiya	2,5	4	Rossiya	6,0	4	Germaniya	3,7
5	Braziliya	1,5	5	Kanada	3,8	5	Isroil	2,1
6	Marokko	1,2	6	Indoneziya	2,9	6	Iordaniya	1,2
7	Tunis	1,0	7	Ukraina	2,3	7	AQSh	1,2
8	Avstraliya	0,7	8	Pokiston	2,2	8	Xitoy	0,7
9	Polsha	0,4	9	Misr	1,5	9	Buyuk Britaniya	0,6
10	Ispaniya	0,4	10	Saudiya Arabistoni	1,3	10	Ispaniya	0,5

#### 5-jadval

### Polimerlar ishlab chiqaruvchi asosiy davlatlar. (XXI asrning birinchi o'n yilligi).

Sintetik mum va plastmassa ishlab chiqarish			Kimyoviy tola ishlab chiqarish			Sintetik kauchuk ishlab chiqarish		
T/r	mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)	T/r	mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)	T/r	mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)
1	AQSh	31,0	1	Xitoy	15,0	1	AQSh	2,5
2	Yaponiya	14,8	2	AQSh	4,2	2	Yaponiya	1,5
3	Germaniya	11,2	3	Tayvan	3,3	3	Rossiya	0,8
4	Koreya R.	8,4	4	Koreya R.	2,3	4	Fransiya	0,6
5	Tayvan	8,3	5	Hindiston	2,2	5	Germaniya	0,6
6	Xitoy	6,2	6	Yaponiya	1,2	6	Xitoy	0,5
7	Fransiya	6,0	7	Indoneziya	1,2	7	Koreya R.	0,5
8	Niderlandiya	4,5	8	Germaniya	1,1	8	Tayvan	0,4
9	Buyuk Britaniya	3,6	9	Turkiya	1,1	9	Buyuk Britaniya	0,3
10	Belgiya	3,5	10	Tailand	0,9	10	Braziliya	0,3
	Qolgan	32,5		Qolgan	8,6		Qolgan	1,8



	davlatlar			davlatlar			davlatlar	
	Dunyo bo'yicha	130,0		Dunyo bo'yicha	41,1		Dunyo bo'yicha	9,8

75% dan ortiq medikamentlar va parfyumeriya mahsulotlari yuksak rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqariladi, 20% rivojlanayotgan davlatlar hissasiga, 5% dan kamrog'i MDH mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Farmasevtika sanoatining rivojlanishi bo'yicha Yevropa davlatlari ichida Germaniya (dunyodagi ishlab chiqarishning 1/12 qismi), Shveysariya, Fransiya, Polsha, Vengriya, Osiyo davlatlari ichida Yaponiya (dunyodagi ishlab chiqarishning 1/6 qismi), Xitoy va Hindiston ajralib turadi. Jahon bozorini dori vositalari bilan asosiy ta'minlovchilar AQSh va Yevropa davlatlari bo'lsa, asosiy xaridorlar Yaponiya, Rossiya (talabning 2/3 qismi) va rivojlanayotgan davlatlar hisoblanadi.

Parfyumeriya mahsulotlarining eng yirik ishlab chiqaruvchilari Yevropa (ayniqsa Germaniya va Fransiya), AQSh, Yaponiya va Rossiya davlatlaridir.

### **Amaliy ishning borishi**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. O'zbekistonda kimyo sanoatining qaysi tarmoqlari rivojlangan?
2. Respublikamizdagi birinchi kimyo sanoati korxonasi qachon barpo etilgan?
3. O'zbekiston yalpi sanoat tarmoqlari orasida kimyo sanoatining ulushi qancha?
4. Mamlakatimizda kimyo sanoatida qancha turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi?
5. O'zbekistonda kimyo sanoatining mineral o'g'itlar ishlab chiqaradigan yirik korxonalar qaysi shaharlarda joylashgan?
6. Hidroliz sanoati qaysi hududlarda tarkib topgan va ularning ishlab chiqarish xususiyatlarini ta'riflang.
7. Rezina mahsulotlari ishlab chiqaradigan yirik korxonalar va ularning ishlab chiqarish xususiyatlarini izohlang.
8. O'zbekistonda kimyo sanoatining o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari ishlab chiqaradigan yirik korxonalar qaysi shaharlarda joylashgan?
9. Kimyoviy tolalar va iplar ishlab chiqaradigan korxonalarining hududiy joylashuvi va mahsulotlarini izohlang.
10. Plastmassa va propilen mahsulotlari, lak-bo'yoq, ro'zg'or kimyosi tovarlari, biokimyo mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar ro'yxatini tuzing.

#### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Dunyoning yirik fosforit, kaliy tuzi, oltingugurt, sulfat kislotasi ishlab chiqaruvchi mamlakatlari ro'yxatini tuzing.
2. O'zbekistonning kimyo sanoati kartasini chizing va tahlil qiling.
3. Dunyo kimyo sanoatining rivojlanish darajasiga ko'ra hududlarini tahlil qiling.
4. Dunyo kimyo sanoati kartasini chizing va tahlil qiling.

## **10-mavzu: O'rmon va qurilish materiallari ishlab chiqarish majmuasi**

### **Reja:**

1. O'zbekistonda qurilish materillari ishlab chiqaradigan korxonalar faoliyati.
2. Qurilish materiallari ishlab chiqarish salmog'i.
3. O'zbekiston qurilish materiallari ishlab chiqarish kartasi

**Ko'rgazmali qurollar:** Ma'ruza matni, Qurilish materiallari ishlab chiqarish kartasi, o'quv materiallari, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, rangli markerlar.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** O'rmon sanoati va qurilish materiallari ishlab chiqarish, ularning hududiy joylashuv xususiyatlarini o'rganish.

### **Mavzuning nazariy qismi**

O'rmon sanoatining asosiy turlariga o'rmon kesish, yog'och tayyorlash, yog'ochga ishlov berish, mebelsozlik, qog'oz-sellyuloza va o'rmon kimyosi kiradi.

Yog'och tayyorlash bo'yicha dunyodagi eng yirik davlatlarga:

1. AQSh (500 mln m<sup>3</sup> dan ortiq);
2. Xitoy (315 mln m<sup>3</sup>);
3. Hindiston (310 mln m<sup>3</sup> atrofida) kabilar kiradi.

Ulardan keying o'rinlarda Braziliya, Indoneziya, Kanada, Nigeriya, Rossiya, Shvetsiya va Finlyandiya turadi.

Ishlov berilmagan yog'och eksportchilari Rossiya, Kanada va janubiy o'rmon mintaqasi mamlakatlari, asosiy xaridorlar esa Yaponiya, G'arbiy Yevropa va AQShdir. Kesilgan daraxtlarning yarmidan ko'prog'i qayta ishlanadi, deyarli yarmi esa o'tin sifatida ishlatiladi.

Qayta ishlangan yog'och materiallari bo'yicha:

1. AQSh (115 mln m<sup>3</sup>dan ortiq);
2. Kanada (64 mln m<sup>3</sup>dan ortiq);
3. Xitoy (30 mln m<sup>3</sup> atrofida) mamlakatlari yetakchilik qiladi.

Shuningdek Yaponiya, Rossiya, Braziliya, Hindiston, Shvetsiya, Germaniya va Finlyandiya ajratib ko'rsatiladi.

Qog'oz va karton ishlab chiqarishda:

1. AQSh (80 mln. t. dan ortiq);
2. Xitoy (50 mln. t. dan ortiq);

Yaponiya (30 mln. t. atrofida) yetakchilik qiladi. Qog'oz-sellyuloza ishlab chiqarish rivojlangan davlatlar ichida Germaniya, Finlyandiya, Shvetsiya, Koreya R., Fransiya va Italiya kabi davlatlar alohida o'rnga ega.

O'rmon resurslarining aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha Gviana (bir kishiga 114 ga.) yuqori darajaga ega.

## O'rmon sanoati mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar

T/r	mamlakat	Yog'och tayyorlash (mln m <sup>3</sup> )	T/r	mamlakat	Yog'och-taxta mahsulotlari ishlab chiqarish (mln m <sup>3</sup> )	T/r	mamlakat	Qog'oz va karton ishlab chiqarish (ming t)
1	AQSh	503	1	AQSh	116	1	AQSh	83,6
2	Xitoy	315	2	Kanada	64	2	Xitoy	53,5
3	Hindiston	309	3	Xitoy	28	3	Yaponiya	29,2
4	Braziliya	220	4	Yaponiya	24	4	Kanada	20,6
5	Indoneziya	205	5	Rossiya	20	5	Germaniya	20,4
6	Kanada	200	6	Braziliya	19	6	Finlyandiya	14,0
7	Nigeriya	117	7	Hindiston	17	7	Shvetsiya	11,6
8	Rossiya	85	8	Shvetsiya	15	8	Koreya R.	10,5
9	Shvetsiya	60	9	Germaniya	15	9	Fransiya	10,2
10	Finlyandiya	50	10	Finlyandiya	10	10	Italiya	9,7
<b>Qolgan davlatlar</b>		<b>1286</b>	<b>Qolgan davlatlar</b>		<b>172</b>	<b>Qolgan davlatlar</b>		<b>91,7</b>
<b>Butun dunyo</b>		<b>3350</b>	<b>Butun dunyo</b>		<b>500</b>	<b>Butun dunyo</b>		<b>355,0</b>

## Amaliy ishning borishi:

## Mavzuga oid savollar:

1. Respublikamizda qurilish materiallari sanoati korxonalarida qancha mahsulotlar ishlab chiqariladi?
2. O'zbekiston yalpi sanoati tarkibida qurilish materiallari sanoatining ulushi qanchani tashkil etadi?
3. O'zbekistonda shu sanoat tarmog'iga oid birinchi tashkil etilgan korxonalar qaysi?
4. Respublika qurilish materiallari sanoatida qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi?
5. O'zbekistonda sement ishlab chiqariladigan korxonalar qaysi shaharlarda barpo etilgan? Ularning ishlab chiqarish xususiyatlarini ta'riflang.
6. Respublikamizda shisha oyna ishlab chiqaradigan korxonalar qaysi hududlarda faoliyat yuritmoqda?
7. O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaradigan qancha korxonalar mavjud?
8. Respublikamizdagi marmar konlari va ularni qayta ishlaydigan korxonalarining ishlab chiqarish xususiyatlarini tushuntiring.

### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha mahsulotlar ishlab chiqarish salmog'i diagrammasini chizing va tahlil qiling.
2. O'zbekistonning qurilish materiallari sanoati kartasini chizing va tahlil qiling.
3. Respublikamizda vujudga kelgan g'isht zavodlari, ularning xomashyosi va joylashgan o'rnini izohlang.
4. Mamlakatimizda qancha uysozlik kombinatlari va zavodlari, yig'ma temir-beton zavodlari mavjud va ular qayerda joylashgan?
5. O'zbekistonning qurilish materiallari sanoati kartasini chizing va tahlil qiling.

### **11-mavzu: Yengil va oziq-ovqat sanoati**

#### **Reja:**

1. O'zbekistonning yengil sanoat tarmog'i tarkibi.
2. O'zbekistonda yengil sanoat tarmog'ida yaratilayotgan mahsulotlar.
3. O'zbekiston yengil sanoat kartasini chizish.
4. O'zbekiston respublikasi oziq-ovqat sanoatining tarmoq tarkibi.
5. O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatining hududiy tarkibi va rivojlanishi.
6. O'zbekiston oziq-ovqat sanoati kartasini chizish.

**Ko'rgazmali qurollar:** Ma'ruza matni, O'zbekistonning Yengil sanoat kartasi, O'zbekistonning oziq-ovqat sanoati kartasi, o'quv materiallari, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, rangli markerlar

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Yengil sanoat tarmoqlarini Respublika hududida tarqalishini o'rganish, kartasini chizish va tahlil qilish. Yengil sanoatida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning samaradorligini o'rganish. Oziq ovqat sanoatining respublikamizda rivojlanish xususiyatlari haqida tushuncha hosil qilish. Oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining hududiy tarkibini tahlil qilish.

#### **Mavzuning nazariy qismi**

**To'qimachilik sanoati.** Jahon to'qimachiligida beshta mintaqa shakllangan: Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, MDH, Yevropa va AQSh.

Mato turlarining barchasini ishlab chiqarish bo'yicha birinchi uchlik quyidagicha:

1. Xitoy (35 mlrd m<sup>3</sup>);
2. Hindiston (20 mlrd m<sup>3</sup>);
3. AQSh (10 mlrd m<sup>3</sup>)

Keyingi o'rinlarda Koreya Respublikasi, Tayvan, Yaponiya, Rossiya, Germaniya, Italiya, Fransiya, va Braziliya turadi. Rivojlangan mamlakatlarda barcha turdagi matolar ishlab chiqariladi, rivojlanayotgan mamlakatlar to'qimachiligining 90% i paxta tolasiga ixtisoslashgan.

Mato turlari bo'yicha jahon xo'jaligida ixtisoslashuv quyidagicha taqsimlangan:

Paxtadan matosi - Xitoy, Hindiston va Indoneziya;

Jun mato – Xitoy, Italiya, Yaponiya;  
 Ipak mato – Xitoy, Yaponiya va Hindiston;  
 Kimyoviy toladan mato to‘qish – AQSh, Hindiston va Yaponiya davlatlari yetakchilik qiladi.

7-jadval

**XXI asr boshida paxta va jun matolar ishlab chiqaruvchi mamlakatlar o‘nligi.**

T/r	mamlakat	Paxta matosini ishlab chiqarish (mlrd m <sup>3</sup> )	T/r	mamlakat	Jun mato ishlab chiqarish (mln m <sup>3</sup> )
1	Xitoy	33,1	1	Xitoy	741
2	Hindiston	19,4	2	Italiya	430
3	Indoneziya	4,3	3	Yaponiya	230
4	AQSh	3,1	4	Hindiston	157
5	Braziliya	2,0	5	Fransiya	96
6	Rossiya	2,0	6	Turkiya	94
7	Italiya	1,3	7	Ispaniya	82
8	Yaponiya	0,8	8	Belgiya	63
9	Tayvan	0,8	9	Rossiya	57
10	Ispaniya	0,7	10	Germaniya	56
<b>Qolgan davlatlar</b>		8,5	<b>Qolgan davlatlar</b>		154,0
<b>Butun dunyo</b>		76,0	<b>Butun dunyo</b>		2160,0

Gilam to‘qish to‘qimachilik tarmog‘ining alohida yo‘nalishidir. Rivojlangan mamlakatlardan gilam to‘qish bo‘yicha AQSh, Belgiya va Buyuk Britaniya, rivojlanayotgan mamlakatlardan Hindiston yetakchilik qiladi.

**Tikuvchilik sanoati.** Tikuvchilik sanoatida o‘ziga xos “moda egalari” shakllangan bo‘lib, ular Parij, London, Berlin va Nyu-York shaharlaridir. Lekin tikuvchilik sohasi sekin-asta rivojlanayotgan mamlakatlariga ko‘chib o‘tmoqda, bunda arzon ishchi kuchidan foydalanish imkoniyati mavjud. Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar ulushiga jahon tikuvchilik sanoati mahsulotlarining 50% i to‘g‘ri keladi.

**Trikotaj sanoati.** Trikotaj ishlab chiqarish, rivojlangan mamlakatlarda yaxshi shakllangan. Ayniqsa Italiya, Frantsiya va AQSH ajralib turadi. Ayni vaqtda Xitoy va yangi sanoatlashgan mamlakatlar Koreya Respublikasi, Tayvan, Tailand va Singapurda jadal rivojlanmoqda.

**Mo‘yna sanoati.** Mo‘yna ishlab chiqarish an‘anaviy tarzda Kanada, AQSH, Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya, Rossiya va Mongoliyada rivojlangan.

**Ko‘n-poyabzal ishlab chiqarish.** Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan poyabzalning yarmi rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli.

Jahonda poyabzal ishlab chiqaruvchi yetakchi mamlakatlar:

1. Xitoy (400 mln juft atrofida);
2. Italiya (300 mln juftdan ortiq);
3. Hindiston (200 mln juft atrofida) kabilardir.

Ulardan keyingi o‘rinlarda Ispaniya, Koreya Respublikasi, Tayvan, AQSh, Frantsiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar turadi.

**Go'sht sanoati.** . Jahon bozorida go'sht mahsulotlarini eksport qilishda yetakchi davlatlar G'arbiy Yevropa mamlakatlari ( jahon eksportining 50% ga yaqini), AQSh, Braziliya, Avstraliya kabilar bo'lsa, eng ko'p import qiluvchilar G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Rossiya va Yaponiya hisoblanadi.

**Sut sanoati.** Sut etishtirish va sut mahsulotlarinin ishlab chiqarish Yevropa, AQSh, Rossiya, Belorussiya, Ukraina, Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlarida yaxshi rivojlangan. Sut mahsulotlari ichida fransuz va fin sariyog'i, Finlyandiya va Estoniya qaymog'i, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Shveysariya, Litva pishloqlari va Fransiya, Germaniyada ishlab chiqariladigan yogurtlar juda mashhurdir.

Hayvon yog'ini yetishtirish XX asr oxirida 6 mln tonnaga yetdi. Bu mahsulotni eng ko'p ishlab chiqaruvchi mamlakatlar ichida:

1. Hindiston (1,3 mln tonna atrofida);
2. AQSh (550 ming tonna atrofida);
3. Germaniya (500 ming tonna atrofida) yetakchilik qiladi. Sariyog' ishlab chiqarishda keyingi o'rinlarda Fransiya, Pokiston, Yangi Zelandiya, Rossiya, Polsha, Avstraliya, Ukraina turadi.

Jahon bozoriga sut mahsulotlarini etkazib beruvchi asosiy mamlakatlar Yevropa (ayniqsa Shimoliy va Markaziy), Avstraliya, Yangi Zelandiya, asosiy import qiluvchi mamlakatlar MDH davlatlari va Xitoydir.

**Qand sanoati.** Dunyoda yiliga 130 mln tonnadan ko'p qand xom-ashyosi ishlab chiqariladi, uning 80% i shakarqamish, 20% dan ko'prog'i qand lavlagidan olinadi. Dunyo bo'yicha ikkita qand etishtiruvchi region ajratiladi – bular, dunyoda etishtiriladigan qandning  $\frac{3}{4}$  qismini beruvchi Osiyo va  $\frac{1}{4}$  qismini etishtiruvchi Lotin Amerikasi hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda shakarqamish va qandlavlagidan olinadigan qandning ulushi teng bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda 95% qand shakarqamishdan olinadi.

## 8-jadval

### XXI asr boshida qand ishlab chiqaruvchi, eksport va import qiluvchi asosiy davlatlar.

Asosiy qand etishtiruvchilar			Asosiy eksport qiluvchilar			Asosiy import qiluvchilar		
T/r	mamlakatlar	yetishtirish (mln t.)	T/r	mamlakatlar	Eksport (mln t.)	T/r	mamlakatlar	Import (mln t.)
1	Braziliya	21	1	Braziliya	4,9	1	AQSh	2,9
2	Hindiston	17	2	Avstraliya	4,5	2	Rossiya	2,6
3	Xitoy	8	3	Kuba	2,6	3	Yaponiya	1,9
4	AQSh	7,5	4	Tailand	1,5	4	Koreya R.	1,4
5	Avstraliya	6	5	Gvatemala	1,3	5	Buyuk Britaniya	1,3
6	Tailand	5,5	6	JAR	0,9	6	Malayziya	1,2
7	Fransiya	5	7	Kolumbiya	0,7	7	Misr	1,1
8	Meksika	4,8	8	Mavrikiy	0,6	8	Kanada	1
9	Germaniya	4,5	9	Meksika	0,3	9	Xitoy	0,9
10	Pokiston	4	10	Dominikan R	0,3	10	Hindiston	0,6

Tozalanmagan qand yetishtiruvchi eng yirik davlatlar Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSh, Avstraliya, Tailand, Fransiya, Meksika, Germaniya, Pokiston va Kuba hisoblanadi. Eng ko'p eksport qiluvchi davlatlar Braziliya, Avstraliya, Kuba, Tailand, Gvatemala va G'arbiy Yevropa mamlakatlari (ayniqsa Fransiya, Germaniya, Belgiya) kabilardir.

**Vinochilik.** Uzum yetishtirish va uzumdan olinadigan vino ishlab chiqarish mo'tadil mintaqaning janubiy kengliklarida va subtropik iqlim mintaqasida joylashgan mamlakatlarda shakllangan. An'anaviy vinochilik O'rta Yer dengizi, Qora dengiz va Kaspiy dengizi havzasidagi mamlakatlarda rivojlangan. Uzum vinosini ishlab chiqarish AQSh, Lotin Amerikasi mamlakatlari (ayniqsa Argentina va Chilida), JAR va Avstraliyada jadal rivojlanmoqda.

Jahonda yiliga 260 mln gekalitrga yaqin uzum vinosi ishlab chiqariladi. Vinochilikda Yevropa mintaqasi yetakchilik qiladi, dunyoda ishlab chiqariladigan uzum vinosining  $\frac{2}{3}$  qismi ushbu mintaqaga to'g'ri keladi. Eng ko'p vino ishlab chiqaruvchi mamlakatlar:

1. Italiya (57 mln gekalitrga yaqin);
2. Fransiya (50 mln gekalitrdan ortiq);
3. Ispaniya (30 mln gekalitrdan ortiq).

Bu mamlakatlarda dunyoda etishtiriladigan vinoning 55% i to'g'ri keladi. Shuningdek, uzum vinosini eng ko'p ishlab chiqaruvchi davlatlar o'rtasiga AQSh, Argentina, Germaniya, JAR, Avstraliya, Ruminiya va Chili kiradi.

#### **Amaliy ishning borishi:**

##### **Mavzuga oid savollar:**

1. O'zbekistonning qaysi shaharlarida ko'n-poyafzal, paxta tozalash, pillakashlik korxonalari mavjud? Ro'yxatini tuzing.
2. O'zbekistonda yengil sanoat tarmoqlarida qaysi chet davlatlar bilan qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Ular faoliyatini izohlang.
3. Respublikamizda yalpi sanoat mahsulotlari tarkibida yengil sanoatning ulushi qancha va bu tarmoqda qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi?
4. Respublika sanoatida band bo'lgan xodimlarning necha foizi yengil sanoat tarmoqlarida ishlaydi?
5. Paxtadan tayyorlangan mahsulotlar eksporti va importi bo'yicha birinchi o'nlik mamlakatlar qaysilar?
6. Respublikamizda qanday yirik to'qimachilik korxonalari bor?
7. O'zbekistondagi eng yirik paxta tozalash zavodlari qaysilar?
8. Respublikamizda birinchi pillakashlik fabrikasi qachon va qayerda qurilgan?
9. Shoyi gazlamalar to'qiydigan korxonalarini sanang.
10. Chinni buyumlar ishlab chiqaradigan yirik korxonalarini ayting.
11. Respublikamiz yalpi sanoati tarkibida oziq-ovqat sanoatining ulushi qancha?
12. Mamlakatimizda qancha oziq-ovqat sanoati korxonalari mavjud?
13. Bu sanoat tarmog'ida qancha turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi?
14. O'zbekistonda qandolat sanoatiga oid qancha korxonalar faoliyat yuritmoqda?

15. Oziq-ovqat sanoatining respublikamizda yaxshi rivojlanishining sabablarini izohlang.

16. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini hududiy tashkil etishda qanday omillar e'tiborga olinadi?

17. Respublikamizning qaysi shaharlarida go'sht va go'sht mahsulotlari, sut sanoati korxonalari tashkil etilgan?

18. O'zbekistondagi eng yirik yog'-moy zavodlari qaysi shaharlarda tashkil etilgan?

19. O'zbekistonning oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini ifodalovchi diagramma chizing.

20. O'zbekistonning qaysi shaharlarida Un va yorma, go'sht va sut mahsulotlari, choy qadoqlash fabrikalari mavjud?

### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. O'zbekistonning yengil sanoati kartasini tahlil qiling va yozuvsiz kartaga tushiring.

2. O'zbekistondagi eng yirik to'qimachilik korxonalari qaysi shaharlarda tashkil etilgan?

3. O'zbekistonning yengil sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini ifodalovchi diagramma chizing.

4. Dunyoning to'qimachilik sanoati kartasini chizing va tahli qiling.

5. Dunyo bo'yicha paxta eksporti va importi, ip-gazlama eksporti va importi bo'yicha yetakchi mamlakatlar ro'yxatini tuzing, diagrammasini chizing.

6. Dunyo bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha yillik ip-gazlama, shoyi, jun matolar ishlab chiqarish xususiyatlarini tahlil qiling.

7. O'zbekistonning oziq-ovqat sanoati kartasini tahlil qiling va yozuvsiz kartaga tushiring.

8. O'zbekistonning oziq-ovqat sanoati kartasini tahlil qiling va yozuvsiz kartaga tushiring.

9. O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida qaysi chet davlatlar bilan qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Ular faoliyatini izohlang.

10. Yog'-moy ishlab chiqaradigan kombinatlar va zavodlar ro'yxatini tuzish.

## **12-mavzu: Sanoatni rayonlashtirish asoslari**

### **Reja:**

1. O'zbekiston respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog'istonda sanoat tarmoqlarini rivojlanishi.

2. O'zbekistonda asosiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish.

3. Dunyo miqyosida asosiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish.

**Ko'rgazmali qurollar:** Ma'ruza matni, O'zbekiston iqtisodiy kartasi, o'quv materiallari, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, rangli markerlar



***O'quv mashg'ulotining maqsadi*** Talabalarga Sanoatini rayonlashtirish tarmoqlari joylashishi, rivojlanishining asosiy xususiyatlari. Sanoatini rayonlashtirishni asosiy hususiyatlarini tushuntirish. Dunyo mamlakatlarida rayonlashtirish xolati, asosiy markazlari. Respublikamizda sanoat rayonlarining rivojlanish xolati to'g'risida bilimlar berish.

### **Mavzuning nazariy qismi**

Iqtisodiyot asosan joyning maxalliy tabiiy boyliklari zaminida rivojlangan. Transportning taqomillashuviga qarab iqtisodiyot ba'zi joylarda chetdan keltirilgan xom ashyo asosida shakllangan. Ilmiy kashfiyotlar xamda malakali kadrlar asosan yirik shaxarlardagi ilmiy muassasalarda tayyorlanadi. Shunga muvofik ilm va malaka talab ishlab chiqarishlar shaxarlarda rivojlansa, boshqa joylar qishloq xo'jaligi yoki sanoat xom ashyosi yetkazib beradi. Mamlakatning ayrim qismlari o'rtasida mexnatning ana shunday taqsimlanishi geografik yoki xududiy mexnat taqsimoti deyiladi.

Xududiy mexnat taqsimoti kuyidagi xolatlardagina sodir bo'ladi: ishlab chiqarilayotgan maxsulot maxalliy extiyojdan ancha ko'p bo'lishi; uni ishlab chiqarish mamlakatning boshqa qismlaridagidan arzonga tushishi; ishlab chiqarishning xom ashyo zaxirasi ko'p yillarga etarli bo'lishi; maxsulot ayirboshlanganda transport xarajati arzon bo'lishi shart.

Mexnatning geografik taqsimlanishi asosida o'z ixtisoslashuviga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi xududlar — iqtisodiy geografik rayonlar yuzaga keladi. Iqtisodiy geografik rayon (xudud)lar uchun butun mamlakat miqyosida ixtisoslashuv xos bo'lib, maxsulot almashinuvi juda keng qamrovda amalga oshadi. Bunday rayonlarning bir necha ixtisoslashgan tarmoqlari bo'lishi xam mumkin.

Iqtisodiy geografik rayon: a) geografik o'rni o'ziga xos; b) mamlakat miqyosida ixtisoslashgan; v) majmualiy xo'jalik shakllangan; g) tabiiy boyliklar xamda ishchi kuchi bilan ta'minlanishida boshqa rayonlardan farqlanuvchi xududlardir.

Iqtisodiy geografik rayonning rivojlanganlik darajasini unda qanday xududiy-ishlab chiqarish majmualari (XICHM) mavjudligi va qay darajada shakllanganidan bilish mumkin. U mamlakat miqyosida mablaglarni anchagina iqtisod qiladi, ijtimoiy mexnat unumdorligini oshiradi, tabiat muxofazasini, xalqimiz turmush, mexnat, dam olish sharoitlarining yaxshilanishini ta'minlaydi.

Bunga o'zaro boglangan korxonalarni yagona transport, energetika va qurilish bazalari uyg'unligiga yaqin (kooperativlash, kombinatlash asosida) joylashtirilish xisobiga, shuningdek, tabiiy boyliklardan va ish kuchlaridan, ikkilamchi xom ashyo xamda chiqindilardan oqilona foydalanish xisobiga erishiladi.

XICHMlar tabiiy boyliklari ko'p xududlarni tezrok va tejamlirok o'zlashtirishga imkon beradi. Xar bir XICHM egallagan maydoni va tarmoqlarining tarkibiga ko'ra boshqasidan farq qiladi. Tarmoqlararo majmualar taqomillashganlik darajasi bo'yicha xam bir-biridan farqlanadi.

### **Amaliy ishning borishi:**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. Respublikamizda mavjud iqtisodiy ijtimoiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha nechta iqtisodiy rayon ajratilgan?

2. Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy-industrial zonaning tashkil etilish sabablarini izohlang.
3. Toshkent aglomeratsiyasi tarkibidagi sanoat rayonlari va tugunlariga ta'rif bering.
4. O'zbekistonni sanoatlashtirishning dastlabki davrlarida sanoat o'sish sur'atlarining darajasi qanday edi?
5. Respublikamizda II-jahon urushi yillarida qanday sanoat korxonalari barpo etildi?
6. O'zbekiston respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach, sanoat tarmoqlari tarkibida va mahsulot ishlab chiqarishda qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
7. Respublikamizda undiruvchi va ishlov beruvchi sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish nisbati qanday va bu ko'rsatkichlar viloyatlar bo'yicha qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
8. O'zbekistonda tabiiy mineral resurslar asosida ishlovchi qanday sanoat korxonalarini bilasiz?

### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Respublikamiz sanoatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1970-1979, 1980-1989 yillar davomida qanday ko'rsatkichga ega?
2. O'zbekistonda asosiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jadvalini tahlil qilish va bunda sanoat tarmoqlarining qaysi sohalarida ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqori ekanligini aniqlash. Jadval ma'lumotlari asosida ustunsimon diagramma chizish.
3. Dunyo miqyosida Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'nlik mamlakatlar ro'yxatini tuzish va jadval asosida diagramma chizish.

### **9-jadval**

#### **O'zbekistonda asosiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>Mahsulotlar</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>1994</b>	<b>1997</b>	<b>1999</b>
Elektr quvvati	Mlrd. kVt.s	47,8	46,1	45,4
Neft	Mln.t	5,5	7,9	8,1
Benzin	Ming t	1398	1360	1638
Tabiiy gaz	Mln.m <sup>3</sup>	47,2	51,2	55,6
Ko'mir	Mln.t	3,8	2,9	3,0
Po'lat	Ming t	364	379	355,6
Traktorlar	Dona	1684	2852	1707
Paxta terish mashinalari	Dona	651	1049	278
Yengil avtomobillar	Ming dona	-	64,9	58,8
Videomagnitofonlar	Ming dona	23,9	140,6	6,7
Televizorlar	Ming dona	50,7	268,4	50,3
Kimyo tolasi	T	12490	7299	11472
Mineral o'g'itlar	Ming t	811	954,4	876,2
Sement	Mln.t	4,8	3,4	3,3
Paxta tolasi	Ming t	1384,8	1125	1018,0
Ip-gazlama	Mln.m <sup>3</sup>	480	424,9	303,5
Poyafzal	Mln.juft	27823	5540	3870
Un	Ming t	2941,7	1727,1	1848,1

Guruch	Ming t	240,1	128,8	138,6
O'simlik yog'i	Ming t	359,7	276,4	227,6

### 10-jadval

#### Dunyo miqyosida Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'nlik mamlakatlar

Mahsulotlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Neft eksporti bo'yicha	Saudiya Arabis	Iroq	Nigeriya	BAA	Liviya	Venesuela	Quvayt	Eron	Indoneziya	Jazoir
Elektroenergetika	AQSH	Yaponiya	Xitoy	Rossiya	Kanada	Germaniya	Fransiya	Hindiston	Buyuk Brit	Braziliya
Po'lat ishlab chiqarish	Yaponiya	Xitoy	AQSH	Rossiya	Germaniya	Koreya	Italiya	Braziliya	Ukraina	Hindiston
Temir ishlab chiqarish	Avstraliya	Braziliya	AQSH	Xitoy	Ukraina	Kanada	Hindiston	Shvet siya	JAR	Liberiya
Rux va qalay ishlab chiqarish	Kanada	Avstraliya	AQSH	Peru	Meksika	Xitoy	Irlandiya	Yaponiya	Ispaniya	Polsha
Mis ishlab chiqarish	AQSH	Chili	Zambiya	Kanada	Kongo	Peru	Polsha	Filippin	Avstraliya	JAR
Yuk va yengil avtomobillar eksporti	Yaponiya	Germaniya	Kanada	Fransiya	AQSH	Belgiya	Italiya	Buyuk Brit		
Paxta eksporti	AQSH	O'zbekiston	Pokiston	Turkiya	Meksika	Misr	Sudan	Gvatemala		

### 13-mavzu: Yer fondi va uning tuzilishi

#### Reja:

1. Dunyo yer resurslari va ulardan foydalanish .
2. O'zbekiston yer fondi tuzilishi.
3. Dunyo yer resurslari kartasini chizish.

**Ko'rgazmali qurollar:** Yer resurslari kartasi, O'zbekiston respublikasi yer fondining tuzilishi diagrammasi, yozuvsiz karta, adabiyotlar.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** dunyo va O'zbekiston respublikasi yer fondini o'rganish. Yer fondidan foydalanish xususiyatlarini va dinamikasini taqlil qilish.

#### Mavzuning nazariy qismi

Barcha xom ashyolar sanoatda mehnat predmeti, ularga ishlov beriladigan mashinalar esa mehnat vositasi hisoblansa, qishloq xo'jaligida mehnat predmeti ham, mehnat vositasi ham yer hisoblanadi. Serhosil qishloq xo'jaligi ko'p jixatdan yerning

holatiga bog'liq. Yerning holatini yaxshilash uchun tekislash, sug'orish, sho'rni yuvish, nihol o'tkazish, tuproq xosildorligini oshirish kabi ishlar bajariladi. O'zaro aloqador bunday tadbirlar melioratsiya deyiladi.

Qo'riq maydonlarning o'zlashtirilishi va rekultivatsiya ishlari natijasida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydoni kengayadi. Ayni vaqtda sanoat va transport yuksalishi, turar joy dahalari kengayishi orqasida qishloq xo'jaligida foydalanayotgan yerlar muqarrar qisqaradi. Yerdan foydalanish qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida esa azaldan foydalanilayotgan yerlar sho'rlanishi, hatto cho'llanishi ham mumkin. Binobarin, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar, bir tomondan kengaysa, ikkinchi tomondan, qisqaradi.

Qishloq xo'jaligi maqsadlaridagina foydalaniladigan yerlar qishloq xo'jalik yerlari deyiladi. Mamlakatimiz maydonining 2/3 qismidan ko'progi qishloq xo'jalik yerlari hisoblanadi.

### **Amaliy ishning borishi:**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. Yer qishloq xo'jaligida qanday ahamiyatga ega?
2. Yer sharida jami haydash uchun yaroqli bo'lgan va haydaladigan yerlar qanchani tashkil qiladi?
3. Dunyo bo'yicha aholi manzilgohlari, transport yo'llari, sanoat korxonalari qanchani tashkil qiladi?
4. Har yili qancha yer foydalanishdan chiqib ketadi va bunga sabab bo'luvchi omillarni ayting.
5. Sug'oriladigan yerlar maydoni eng ko'p mamlakatlarni sanang.
6. Respublikamizning umumiy yer fondi qanchani tashkil qiladi?
7. Respublika yer fondining asosiy qismi qanday yerlardan iborat?
8. O'zbekiston respublikasi "Yer kodeksi" qachon qabul qilingan?
9. O'zbekistonda ekinlarning ko'pchiligi qanday yerlarda yetishtiriladi?
10. O'zbekistonda obikor dehqonchilik mintaqasi respublika hududining qancha qismini egallaydi va u yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining qanchasini yetkazib bermoqda?
11. Obikor dehqonchilik mintaqalarini sanang?
12. Respublikamizdagi cho'l-yaylov mintaqasining asosiy qismi qaysi viloyatlar hududiga to'g'ri keladi?

#### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Dunyo yer resurslari kartasini tahlil qilish. Bunda ishlanadigan yerlar, o'tloqlar va yaylovlar, qurg'oqchil hududlarda ishlanadigan yerlar mavjud yaylovlar, ishlanadigan yerlar mavjud hududlar foydalanilmaydigan yerlarni materiklar bo'yicha izohlash.
2. Materiklardagi yaroqli yerlar struktura jadvalini tahlil qilish va har bir materik bo'yicha diagrammalar chizish.
3. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni jadvalini tahlil qilish va shu asosda diagramma chizish

**11-jadval****Qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni  
Barcha xo'jaliklarda, ming gektar hisobida**

	1990	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001
Barcha ekin maydonlari	4194,2	4165,0	4007,0	4140,6	4029,6	4019,5	3778,3	3438,4
G'alla ekinlari maydoni	1008,1	1656,5	1740,5	1837,6	1686,7	1720,5	1614,0	1391,6
Paxta maydoni	1830,1	1492,8	1487,3	1513,1	1531,6	1517,4	1444,5	1452,0
Kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari	270,1	238,2	214,6	214,9	229,5	233,2	219,0	216,3
Yem-xashak maydoni	1039,7	731,6	521,5	507,8	497,5	452,8	429,0	330,4

**12-jadval****Materiklardagi yaroqli yerlar strukturasi  
(dunyoning yaroqli yerlariga nisbatan, foiz hisobida)**

Materiklar va qit'alar	Ko'p yillik ekinlar	Yaylov va pichanzorlar	O'rmonlar	Boshqa yerlar
Yevropa	27	16	10	16
Osiyo	32	18	28	34
Shimoliy Amerika	8	17	24	9
Janubiy Amerika	15	10	17	14
Afrika	15	24	18	22
Avstraliya va okeaniya	3	15	3	5

**14-mavzu: Qishloq xo'jaligini rivojlantirish asoslari****Reja:**

1. Qishloq xo'jaligining o'ziga xos rivojlanish va hududiy tashkil etish xususiyatlari.
2. Respublikada qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar.
3. Qishloq xo'jaligini isloh qilishning huquqiy asoslari.
4. Qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilashga oid tadbirlar.

**Ko'rgazmali qurollar:** O'zbekiston iqtisodiy kartasi, qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilishga doir farmon va qarorlar, adabiyotlar.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida shaxsiy tamorqa xo'jaligining rolini o'rganish va tahlil qilish.

### **Mavzuning nazariy qismi:**

Qishloq xo'jaligining keng tarqalganligi uning ko'p tarmoqliligi bilan muvofiq keladi: olimlar 50 dan ortiq tipini ajratadilar. Lekin ularning barchasini ikki katta guruhga birlashtirish mumkin. Birinchidan, xom-ashyo yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi bo'lib, u o'z navbatida almashlab ekish tipidagi intensiv dehqonchilik, yem – xashak tayyorlash bilan birga intensiv chorvachilik, bog'dorchilik va polizchilik, shu bilan birga shudgor qilinadigan va bo'z yerlarni o'zlashtirish tipidagi ekstensiv dehqonchilik va yaylov chorvachiligiga bo'linadi. Ikkinchidan, an'anaviy iste'molchilik qishloq xo'jaligi bo'lib, u o'z ichiga yerga omoch va ketmon bilan ishlov beruvchi dehqonchilik, yaylov, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilik, shuningdek terib-termachlash, ov va baliqchilikka bo'linadi.

Rivojlanayotgan davlatlarga ko'pincha dehqonchilikning monokulturaviy shakli xosdir. Eksport ahamiyatiga ega bo'lgan bir turdagi ekinlar muayyan mamlakatning asosiy ekini bo'lib qoladi. Masalan Kubada shakarqamish va tamaki, Kolumbiyada kofe va banan, Ekvadorda banan, Shri-Lankada choy, Efiopiyada kofe, Kot-d'Ivuarda kakao, Sudanda paxta ana shunday ekinlardan hisoblanadi.

Ayni vaqtda "yashil inqilob"ning rivojlanayotgan davlatlardagi xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) Ushbu jarayon Lotin Amerikasidagi faqat yirik davlatlari, Janubiy va janubi-sharqiy Osiyoning ba'zi davlatlarinigina qamrab oldi. Shunday qilib, "yashil inqilob" natijalarining 70% i Lotin Amerikasi davlatlariga, 29% i Osiyoning rivojlanayotgan davlatlariga va faqat 1% igina Afrika va Okeaniyaga to'g'ri keladi.
- 2) Bu jarayon xorijiy kapitalga tegishli yirik yerlar va plantasiyalarga ta'sir ko'rsatdi.
- 3) "Yashil inqilob"ning dehqonchilikdagi ayrim yo'nalishlari (donchilik va plantasiya xo'jaligi)gagina ta'sir etib, chorvachilikning amalda chetda qolishi.

### **Amaliy ishning borishi:**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. Qishloq xo'jaligining o'ziga xos rivojlanish va hududiy tashkil etish xususiyatlarini ta'riflang.
2. Qishloq xo'jaligi mahsuloti mamlakatga valyuta tushumlarining necha foizini ta'minlaydigan tarmoqdir?
3. Hozirgi kunda respublikamizda qancha fermer xo'jaligi mavjud va unda jami qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholining necha foizi faoliyat yuritmoqda?
4. Mustaqillikning dastlabki yillaridan respublikamizda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning qanday huquqiy asoslari barpo etildi?

5. Qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlaydigan qancha agrofirmalar mavjud?
6. Qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatadigan ixtisoslashgan qanday tijorat banklari tuzilgan?
7. Respublika yer fondini rivojlantirish va ko'paytirishga oid qanday chora-tadbirlar qo'llanilmoqda?
8. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha qanday ishlar amalgam oshirilmoqda?
9. Jahon banki hamda Shanxay hamkorlik tashkilotining umumiy qiymati 70 mln. dollarga teng bo'lgan imtiyozli krediti qaysi hududlardagi yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun jalb qilindi?

**Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi tarmoqlarini isloh qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni amaliyot daftariga yozish.
2. Agrosanoat majmuasi va uning respublikamizdagi faoliyati haqidagi ma'lumotlarni amaliyot daftariga yozish.
3. Agrobiznes va uning turlari haqidagi ma'lumotlarni amaliyot daftariga yozish.

**15-mavzu: Dehqonchilik tarmog'i**

**Reja:**

1. Don yetishtirish.
2. Kuzgi ekinlar.
3. Bahorgi ekinlar.
4. Don-dukakli ekinlar.
5. Paxtachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.

**Ko'rgazmali qurollar:** Dunyo donli ekinlar, texnik ekinlar kartalari, O'zbekiston donli ekinlar, paxtachilik kartalari, O'zbekistonda paxta yetishtirish jadvali, yozuvsiz karta, adabiyotlar.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Dehqonchilik tarmoqlari geografiyasi, mahsulotlari haqida statistik ma'lumot to'plash.

**Mavzuning nazariy qismi**

Dehqonchilik sug'oriladigan va lalmikor turlarga bo'linadi. Sug'oriladigan maydonlar ulushi Markaziy Osiyo respublikalari (100% gacha), Eron, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Indoneziya va AQSh kabi davlatlarda eng yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Ekinlarning turlari bo'yicha dehqonchilik an'anaviy tarzda donchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, texnik ekinlar va hokazo yo'nalishlarga ajratiladi.

Bunday ekinlarni yetishtirish bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, madaniy ekinlarning kelib chiqishi turli mintaqalarga tegishlidir.


### 13-jadval

#### Madaniy ekinlarining kelib chiqish markazlari

Markazlar	Geografik o'rni	Madaniy ekinlar
O'rta Yer dengizi bo'yi	O'rta Yer dengizi qirg'oqlari mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Gresiya)	Zaytun, qizilcha, turp, sholg'om, karam, piyoz, shivit, kashnich, yalpiz, kanop, zig'ir
Old Osiyo	Eron, Kavkaz, Kichik Osiyo	Yumshoq bug'doy, javdar, arpa, suli, dukkaklilar, uzum, olma, nok, olcha, anor, xurmo, qovun, atirgul
O'rta Osiyo	Afg'oniston va O'rta Osiyo	No'xat, yasmiq, qovoq, ismaloq, sabzi, boshpiyoz, shaftoli, o'rik, grek yong'og'i, bodom
Sharqiy Osiyo (Xitoy)	Sharqiy va Janubiy Xitoy, Koreya	Tariq, arpa, xitoy qo'nog'i, marjumak, soya, kivi, dolchin, choy.
Janubiy Osiyo (Hindiston)	Gang daryosi mansabi	Sholi, baqlajon, bodring, mango, limon, apelsin, shakarqamish, jut, qisqa tolali g'o'za.
Hind-Malaya	Hindixitoy va Malakka	Yams, banan, kokos palmasi, non daraxti, qora murch, muskat yong'og'i.
Efiopiya	Efiopiya	Qattiq bug'doy, sorgo (qo'qonjo'xori), xantal, kunjut, kofe daraxti.
Meksika (Markaziy Amerika)	Meksika va Markaziy Amerika	Makkajo'xori (mais), pomidor, batat, kungaboqar, qalampir, ingichka tolali g'o'za, kakao, tamaki.
And (Janubiy Amerika)	Peru, Ekvador, Boliviya	Kartoshka, maniok, loviya, ananas, yeryong'oq, geveya
Chili	Markaziy Chili	Kartoshka, qulupnay
Braziliya	Janubiy Braziliya va Paragvay	Maniok, yeryong'oq, ananas, kakao, geveya

Dunyodagi eng asosiy ekinlar bug'doy, makkajo'xori va sholi hisoblanadi, bu ekinlar barcha ekin maydonlarining 75% ini egallaydi hamda, donli ekinlar hosilining 85% ini ta'minlaydi.






### Jahon donli ekinlar maydonining tarkibiy tuzilishi

Dunyo bo'yicha yiliga 600 mln tonna bug'doy yetishtiriladi. Bug'doy ikki navga bo'linadi. Qattiq bug'doy unidan makkaron mahsulotlari ishlab chiqariladi, yumshoq bug'doy unidan non yopiladi. Bug'doy Osiyo, Shimoliy Amerika, Yevropa va MDH davlatlarida yetishtiriladi, bu davlatlar ichida bug'doy yetishtirish bo'yicha:


1. Xitoy (100 mln tonna atrofida);
2. Hindiston (70 mln tonna atrofida);
3. AQSh (60 mln tonna atrofida) yetakchilik qiladi.



### Bug'doy yetishtiruvchi yetakchi davlatlar

Makkajo'xori yetishtirish butun dunyoga keng tarqalgan. Yiliga dunyoda 700 mln tonna makkajo'xori doni yetishtiriladi. Ayni vaqtda eng ko'p makkajo'xori yetishtiradigan davlatlar

1. AQSh (270 mln tonna atrofida);
2. Xitoy (145 mln tonnadan ortiq);
3. Braziliya (40 mln tonnadan ortiq) hisoblanadi.



### Makkajo'xori etishtiruvchi etakchi davlatlar


Sholi Sharqiy, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining asosiy ekini hisoblanadi. Dunyo bo'yicha yiliga 630 mln tonna guruch yetishtiriladi. Asosiy guruch yetishtiruvchi mamlakatlar Xitoy (180 mln tonnadan ortiq), Hindiston (140 mln tonna atrofida), Indoneziya (50 mln tonnadan ortiq) bo'lib, shuningdek Bangladesh, Vetnam, Tailand, Myanma, Filippin, Braziliya va Yaponiya davlatlari ham guruch yetishtirish bilan shug'ullanadi.

Don mahsulotlarini eng ko'p eksport qiluvchi davlat AQSh hisoblanadi. Shuningdek Kanada, Avstraliya va Argentina kabi davlatlar o'zlarida yetishtirilgan donning 80% ini eksport qiladi.

Eng ko'p don import qiluvchi davlat Yaponiyadir (30 mln tonnagacha).

Moyli ekinlardan eng ahamiyatlilari hisoblanadigan soyaning vatani Xitoy bo'lib, ayni kunda AQSh, Braziliya va Argentina mamlakatlari soya hosilining 80% ini beradi. Vatani Janubiy Amerika bo'lgan yeryong'oq hosilining katta qismi Hindiston va G'arbiy Afrika mamlakatlariga to'g'ri keladi. Zaytun an'anaviy tarzda O'rta Yer dengizi mamlakatlari bo'lgan Italiya, Ispaniya va Gresiyada yetishtiriladi. Meksika va Markaziy Amerikadan tarqalgan kungaboqar eng ko'p Rossiya, Ukraina va Fransiyada ekiladi.

Kraxmal olinadigan asosiy ekin kartoshkadir. Hozirgi kunda kartoshka yetishtiruvchi eng yirik davlatlar Osiyo, MDH davlatlari, Yevropa va Shimoliy Amerika mintaqalarida joylashgan, bu borada Xitoy (70 mln tonnadan ortiq), Rossiya (40 mln tonna atrofida), Hindiston (25 mln tonna atrofida) kabi davlatlar yetakchilik qiladilar.



### Kartoshka yetishtiruvchi yetakchi davlatlar

Qandlavlagi va shakarqamish o'simliklarishakar moddasi olinadigan asosiy ekinlardir.

Shakarqamish Gang daryosi deltasida ekila boshlagan tropik o'simlik. Hozirgi kunda dunyoda ishlab chiqarilayotgan shakarining 80% i shakarqamishdan olinadi. Lotin Ameikasi va Osiyo davlatlari shakarqamish yetishtirish bilan shug'ullanadi, ularning ichida Braziliya(330 mln tonnadan ortiq), Hindiston (280 mln tonnadan ortiq), Xitoy (90 mln tonna atrofida) kabi mamlakatlar eng ko'p shakarqamish yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Yana Pokiston, Tailand, Meksika, Avstraliya, Kolumbiya, Kuba va AQShda ko'p yetishtiriladi.

Qandlavlagi mo'tadil iqlim mintaqasi o'simligi bo'lib, uning vatani Eron hisoblanadi. Qandlavlagini eng ko'p yetishtiruvchi mamlakatlar ichida Fransiya (33 mln tonna), AQSh (30 mln tonna), Germaniya (28 mln tonna atrofida) ajralib turadi, ulardan keyin Turkiya, Rossiya, Xitoy, Italiya, Ukraina, Polsha va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar turadi.

**14-jadval**

#### Shakarqamish va qandlavlagi yetishtiruvchi asosiy davlatlar

Shakarqamish			Qandlavlagi		
T/r	mamlakat	Yillik hosil (mln t.)	T/r	mamlakat	Yillik hosil (mln t.)
1	Braziliya	333	1	Fransiya	33
2	Hindiston	282	2	AQSh	30
3	Xitoy	89	3	Germaniya	27,6
4	Pokiston	54	4	Trukiya	20
5	Tailand	53	5	Rossiya	15
6	Meksika	46	6	Xitoy	14,6
7	Avstraliya	37	7	Italiya	14
8	Kolumbiya	36,9	8	Ukraina	13,9

9	Kuba	35	9	Polsha	12,6
10	AQSh	32,5	10	Buyuk Britaniya	10,3
<b>Qolgan davlatlar</b>		258,6	<b>Qolgan davlatlar</b>		72
<b>Butun dunyo</b>		1257,0	<b>Butun dunyo</b>		263,0

Tetiklantiruvchi ichimlik beradigan ekinlar asosan tropik mamlakatlarda ekiladi. Bunday ekinlar birinchi navbatda choy, kofe va kakaodir.

Dunyo bo'yicha choy hosilining 80% i Osiyo mamlakatlari, ayniqsa Xitoy, Hindiston, Shri – Lanka va Indoneziya shuningdek Keniyada yig'ib olinadi.

#### 15-jadval

##### Tetiklashtiruvchi ichimlik beradigan ekinlar yetishtiruvchi davlatlar

Choy			Kofe			Kakao		
T/r	mamlakatlar	Yetishti rish (mln t)	T/r	mamlakatlar	Yetishti rish (mln t)	T/r	mamlakatlar	Yetishti rish (mln t)
1	Xitoy	841	1	.Braziliya	1172	1	Kot-d'Ivuar	1286
2	Hindiston	823	2	Kolumbiya	856	2	Indoneziya	610
3	Shri-Lanka	306	3	Indoneziya	370	3	Gana	599
4	Keniya	256	4	Meksika	356	4	Nigeriya	441
5	Indoneziya	158	5	Gvatemala	212	5	Braziliya	236

Tola beruvchi asosiy ekinlar g'o'za, zig'ir, jut hisoblanadi.

G'o'za – juda issiqsevar o'simlikdir. Shuning uchun g'o'za asosan issiq iqlimli mamlakatlarda ekiladi. Dunyo bo'yicha paxta hosilining eng katta ulushi ham shunday mamlakatlarga to'g'ri keladi (10-jadval).

#### 16-jadval

##### Eng ko'p paxta tolasi ishlab chiqaradigan va eksport qiladigan davlatlar o'nligi

T/r	mamlakat	Paxta tolasi ishlab chiqarish (mln t)	T/r	mamlakat	Paxta tolasining eksporti (mln t)
1	Xitoy	4,3	1	AQSh	1,6
2	AQSh	4,1	2	O'zbekiston	1,0
3	Hindiston	2,7	3	Avstraliya	0,6
4	Pokiston	1,6	4	Suriya	0,23
5	O'zbekiston	1,1	5	Argentina	0,22
6	Turkiya	0,8	6	Gresiya	0,19
7	Avstraliya	0,7	7	Mali	0,17
8	Braziliya	0,4	8	Benin	0,14

9	Suriya	0,3	9	Burkina-Faso	0,12
10	Gresiya	0,3	10	Turkiya	0,11

Zig'ir - sovuqqa chidamli, tuproq tanlamaydigan ekin, asosan shimol mamlakatlarida ekiladi. Eng ko'p zig'ir yetishtiruvchi mamlakatlar Rossiya, Ukraina, Belorussiya va Polsha hisoblanadi. Jut asosan Hindiston va Bangladeshda ekiladi.

Kauchuk olinadigan yagona o'simlik geveyadir. Uning vatani Janubiy Amerika bo'lib, ayni kunda 85% kauchuk Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida, xususan Malayziya, Indoneziya, Tailand va Myanmada yetishtiriladi.

### **Amaliy ishning borishi:**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. Obikor dehqonchilik o'z ixtisoslashuv va qishloq xo'jaligi majmualariga ko'ra nechta kichik mintaqaga bo'linadi?
2. Paxtachilik-g'allachilik kichik mintaqasiga qaysi hududlar kiradi?
3. Adir-tog' mintaqasiga respublika hududining qanchasi kiradi?
4. sabzavotchilik, sutchilik, bog'dorchilik va uzumchilikka qaysi mintaqqa ixtisoslashgan?
5. Cho'l-yaylov mintaqasi respublika hududining necha foizini egallaydi va u qaysi sohaga ixtisoslashgan?
6. O'zbekiston qishloq xo'jaligida qanday donli ekinlar yetishtiriladi?
7. Don-dukakli ekinlar turlarini ayting.
8. O'zbekiston paxta ishlab chiqarish va paxta eksporti bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinda turadi?
9. Respublikamizda yangi texnologiya asosida paxtani plyonka ostida yetishtirish birinchi qaysi viloyatda amalgam oshirildi?
10. O'zbekistonda texnik ekinlardan paxtadan boshqa qanday ekinlar yetishtiriladi va qaysi hududlarda?

#### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Dunyo boyicha donli ekinlar kartasini tahlil qilish. Bunda donli ekinlar yig'ib olish va yiliga donli ekinlar hosildorligi ko'rsatkichlariga ko'ra hududlarni ajrating. Dunyo bo'yicha donli ekinlar yalpi hosilining tarkibi, sholi yig'imi, bug'doy eksporti, bug'doy importi bo'yicha birinchi o'nlik mamlakatlar ro'yxatini tuzish.
2. Dunyo texnik ekinlar kartasini tahlil qilish. Bunda qand lavlagi, shakarqamish, g'o'za, kungaboqar, zig'ir ekinlari tarqalgan hududlarni o'rganish.
3. O'zbekiston donli ekinlar kartasini tahlil chizish va tahlil qilish. Bunda Qoraqalpog'iston respublikasi va viloyatlar bo'yicha donli ekinlar maydoni, donli ekinlar yalpi hosili, donli ekinlar hosildorligi ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslash.
4. Qoraqalpog'iston respublikasi va viloyatlar bo'yicha donli ekinlar maydoni, donli ekinlar yalpi hosili, donli ekinlarning turlari bo'yicha yetishtirish tarkibi diagrammalarini chizish.
5. O'zbekiston paxtachiligining xalq xo'jaligidagi ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni amaliyot daftariga yozish.
6. O'zbekistonda paxta yetishtirish jadvalini tahlil qilish va yillar davomida yetishtirilgan paxta, hosildorlik ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslash.

## 1980-2000 yillarda O'zbekistonda paxta yetishtirish

Yillar	Yetishtirilgan paxta, ming tonna	Hosildorligi, s/ga
1980	5579,0	29,7
1985	5382,0	27,0
1990	5058,0	27,6
1995	3934,3	26,4
1996	3350,1	22,6
1997	3641,0	24,1
1998	3206,2	21,0
1999	3652,0	23,7
2000	3002,0	21,8

7. O'zbekiston paxtachilik kartasini chizish va tahlil qilish. Viloyatlar bo'yicha sug'oriladigan yerlarda paxta maydonining salmog'i, paxta xom ashyosi yetishtirish salmog'i diagrammalarini chizish. Qoraqalpog'iston respublikasi va viloyatlar bo'yicha paxta hosildorligi g'o'za ekinlari maydoni, paxta xom ashyosi yalpi yig'imi ko'rsatkichlarini taqqoslash.

## 16-mavzu: Chorvachilik tarmog'i

## Reja:

1. Chorvachilik va uning tarmoqlari.
2. Qoramolchilik va uning tarmoqlari.
3. Qo'ychilik geografiyasi.
4. O'zbekistonda qoramolchilik va qo'ychilikni rivojlantirish masalalari.

**Ko'rgazmali qurollar:** Dunyo chorvachilik kartasi, O'zbekiston chorvachilik kartasi, O'zbekistonda chorva mollarining soni, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jadvallari, yozuvsiz karta, adabiyotlar.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik tarmoqlari haqida ma'lumot berish va ularning hududiy rivojlanishini o'rganish.

## Mavzuning nazariy qismi

Chorvachilik dunyoning barcha qismida rivojlangan, lekin mahsulotning asosiy qismini mo'tadil iqlim mintaqasidagi mamlakatlar beradi. O'tloq va yaylovlar ekin maydonlaridan uch baravar ortiqdir. Bundan tashqari ta'kidlash kerakki, don mahsulotlarining yarmi chorva ozuqasi sifatida ishlatiladi. Jahon xo'jaligida chorvachilikning uch tarmog'i yirik shoxli qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik alohida o'rin tutadi.

Yirik shoxli qoramollar soni dunyoda 1,4 mlrd bosh hisoblanadi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Hindiston qoramollar, Xitoy esa uchala chorva turlari bo'yicha yetakchilik qiladi. Chorva turlarining soni turli mintaqalarga xos mamlakatlarda ko'p yoki oz bo'lishi, bu hududlardagi yaylovlar, iqlim shu bilan birga chorvani boqish

texnologiyalari bilan bog'liq. Masalan, Hindistonda qoramollar soni eng ko'p bo'lishi, mahalliy an'analar bilan bog'liq bo'lib, chorvachilik yuksak rivojlangan degan xulosani bermaydi.

## 18-jadval

### Chorvaning asosiy turlari soni bo'yicha yetakchi davlatlar

T/r	mamlakat	Yirik shoxli qoramol (mln bosh)	T/r	mamlakat	Cho'chqa (mln bosh)	T/r	mamlakat	Qo'y (mln bosh)
1	Hindiston	222,2	1	Xitoy	465,0	1	Xitoy	133
2	Braziliya	176,0	2	AQSh	59,1	2	Avstraliya	123
3	Xitoy	106,7	3	Braziliya	30,0	3	Hindiston	57
4	AQSh	96,7	4	Germaniya	26	4	Eron	52
5	Argentina	50,1	5	Ispaniya	23,9	5	Yangi Zelandiya	48
6	Rossiya	36,1	6	Rossiya	19,5	6	Buyuk Britaniya	43
7	Efiopiya	34,2	7	Polsha	18,2	7	Turkiya	33
8	Avstraliya	21,3	8	Vetnam	18,0	8	Pokiston	31
9	Meksika	19,0	9	Hindiston	17,5	9	JAR	29
10	Kolumbiya	18,1	10	Meksika	15,5	10	Sudan	26

Sut chorvachiligining shirador ozuqaga talabi katta, shuning uchun bu soha Yevropaning o'rmon va o'rmon dasht zonasida. Shimoliy Amerikaning sharqiy qismida va dunyodagi barcha mamlakatlarning shahar atrofi zonasida shakllangan. Eng ko'p sut yetishtiruvchi davlatlar AQSh, Rossiya, Hindiston, Yangi Zelandiya va Yevropa mamlakatlardir.

Go'sht chorvachiligi quruq iqlimli, tabiiy yaylovlari ko'p hududlarda rivojlanadi. Bunday hududlarga AQShning g'arbiy qismi, Braziliyaning sharqiy qismi, Argentina, Urugvay, Qozog'iston va Avstraliya kiradi.

Dunyoda cho'chqalar soni 1 mlrd bosh atrofida hisoblanadi. Cho'chqachilik don xo'jaligi va kartoshka yetishtiriladigan hududlarda yaxshi rivojlangan. Cho'chqachilik islom diniga e'tiqod qilinadigan mamlakatlarda va Isroilda umuman tashkil etilmagan.

Qo'ylarning umumiy soni 1 mlrd boshdan ortiqdir. Xitoy qo'ylar soni va qo'ydan olinadigan mahsulotlar narxi bo'yicha Avstraliyadan o'zib ketgan bo'lsada, Avstraliya dunyoda qo'ychilik sohasida yetakchi o'rinda turibdi. Qo'ychilik cho'l va chala cho'l, tog' yaylovlari mavjud hududlarda keng rivojlangan.

Parrandachilikning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Parranda soni va undan olinadigan mahsulotlar hajmi bo'yicha AQSh, Xitoy, Braziliya, Hindiston, Yaponiya, Rossiya, Meksika va Yevropa davlatlari ajralib turadi.

Dunyoda yetishtiriladigan go'shtning 75% i, sutning 85% i iqtisodiy rivojlangan davlatlarga to'g'ri keladi.

Dunyoda yiliga 250 mln tonna go'sht yetishtiriladi. Uning 40% ini cho'chqa, 30% ga yaqinini mol, 20% ini parranda va faqat 8% ini boshqa turdagi chorva (qo'y, echki, bug'u, ot va b) go'shtlari tashkil qiladi.

### 19-jadval

#### Chorvachilik mahsulotlarini (go'sht, sut, jun) yetistiruvchi mamlakatlar

T/r	mamlakat	Sut (mln t)	T/r	mamlakat	Go'sht (mln t)	T/r	mamlakat	Jun (ming t)
1	AQSh	69,6	1	Xitoy	67,8	1	Avstraliya	444
2	Rossiya	44,0	2	AQSh	39,2	2	Yangi Zelandiya	189
3	Hindiston	31,2	3	Braziliya	16,6	3	Xitoy	125
4	Germaniya	28,0	4	Fransiya	6,5	4	Rossiya	50
5	Fransiya	25,5	5	Germaniya	6,5	5	Buyuk Britaniya	48
6	Ukraina	17,7	6	Hindiston	5,7	6	Urugvay	45
7	Braziliya	16,6	7	Ispaniya	5,2	7	Argentina	37
8	Buyuk Britaniya	14,8	8	Meksika	4,8	8	JAR	34
9	Polsha	12,2	9	Rossiya	4,7	9	Ispaniya	17
10	Niderlandiya	10,9	10	Italiya	4,2	10	AQSh	13
	<b>Qolgan davlatlar</b>	179,5		<b>Qolgan davlatlar</b>	85,1		<b>Qolgan davlatlar</b>	1498
	<b>Dunyo bo'yicha</b>	450		<b>Dunyo bo'yicha</b>	246,3		<b>Dunyo bo'yicha</b>	2500

AQSh, Germaniya, Fransiya va Braziliya mol go'shtini, Xitoy va Yevropaning kichik mamlakatlari cho'chqa go'shtini, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Argentina va Urugvay – qo'y go'shtini, AQSh, Fransiya va Braziliya parranda go'shtini yetishtirishga ixtisoslashgan.

Dunyo bo'yicha yiliga 470 mln tonna sut ishlab chiqariladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, sut chorvachiligi mo'tadil mintaqqa, o'rmon va o'rmon dasht zonalariga ega mamlakatlarda yaxshi rivojlangan, Bu asosan AQSh, Rossiya va Yevropa mamlakatlaridir, boshqa mintaqalardan faqat Hindistonning yetakchi davlatlar qatoridaligini ko'ramiz.

Jun yetishtirish bo'yicha Avstraliya ancha katta ulushga yega, undan keyingi o'rinlarda turuvchi mamlakatlar mahsulot hajmi unga nisbatan juda oz.

#### Amaliy ishning borishi:

##### Mavzuga oid savollar:

1. O'zbekiston qihloq xo'jaligida chorvachilik qanday ahmitaga ega?
2. Respublikamizda qancha maydonni yaylov, pichanzor va o'tloqlar egallaydi?



3. Qoramolchilik tarmog'i zimmasiga jami chorvachilikda yetishtiriladigan mahsulotlarning qanchasi to'g'ri keladi?
4. Qoramolchilikka ixtisoslashgan qanday naslchilik zavodlari respublikamizda faoliyat yuritmoqda?
5. Qaysi viloyatlar qorako'l qo'ylari yetishtirishga ixtisoslashgan?
6. Sarajja, Oloy, Tojikiston zotli qo'ylar asosan qaysi viloyatlarda boqiladi?
7. Yilqichilikning chorvachilikdagi ahamiyati qanday?
8. O'zbekiston jon boshiga pilla yetishtirish va umumiy hajmi bo'yicha jahonda nechanchi o'rinda turadi?
9. Respublikamizning qaysi hududi asosiy pilla yetishtiruvchi makon hisoblanadi?
10. Chorvachilikning serdaromad tarmog'i qaysi?

### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Dunyo chorvachilik kartasini tahlil qilish. Bunda yirik shoxli qoramollar, qo'ylar, chochqalar yetishtiriladigan asosiy hududlarni o'rganish.
2. O'zbekiston chorvachilik kartasini chizish va tahlil qilish. Bunda sug'oriladigan yerlardagi go'sht-sut chorvachiligi, bahorikor yerlarda go'sht-sut chorvachiligi, cho'l va yarim cho'llarda qorako'l qo'ylari, tog' oldi bahor-kuzda foydalaniladigan yaylovlarda go'sht-sut chorvachiligi, tog' yaylovlarida go'sht-sut chorvachiligi, hitori qo'ylar, echkilar, yirik shoxli qoramol, qorako'l qo'ylari barcha zotlardagi qo'ylar tarqalgan hududlarni viloyatlar bo'yicha tahlil qilish.
3. O'zbekistonda chorva mollari soni jadvalini o'rganish va tahlil qilish.

### **20-jadval**

**O'zbekistonda chorva mollarining soni. (ming bosh)**

Yillar	Yirik qora mol		Qo'y va echkilar	Cho'chqalar	Otlar	Parranda
	Jami	Echkilar				
1985	4099,8	1559,4	9256,3	728,3	88,0	33495,7
1990	4180,2	1644,7	8785,6	742,9	97,0	37339,6
1994	5483,3	2336,9	10059,3	350,4	144,8	13500,0
1995	5203,5	2286,4	9322,3	207,9	150,0	13372,9
1996	5351,6	2248,0	9330,6	86,8	147,3	12942,9
1997	5196,4	2281,3	8586,7	73,9	148,8	12278,0
1998	5228,2	2290,2	8697,9	80,8	148,5	13934,9
2000	5334,4	2344,6	8933,1	83,6	146,1	14419,2

4. Chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarish jadvalini o'rganish, tahlil qilish va shu asosda diagrammalar chizish.

**Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish  
(ming tonna)**

Yillar	Go'sht	Sut	Tuxum(mln. dona)	Jun	Pilla
1980	330,5	2265,5	1460,6	20,7	30,3
1990	484,4	3034,2	2452,9	25,8	32,8
1994	285,0	3732,0	1574,0	24,9	22,9
1995	477,7	3665,4	1231,8	19,5	23,7
1996	485,2	3390,3	1056,9	16,6	21,7
1997	461,0	3406,0	1075,3	15,4	20,9
1998	472,1	3494,9	1164,6	15,5	20,4
1999	478,5	3543,4	1242,5	15,6	17,9
2000	841,8	3632,5	1254,4	15,8	16,5
2001	853,7	3667,2	1287,4	15,9	17,3

5. Chorvachilik bo'yicha yalpi mahsulot ishlab chiqarish, chorvachilik xo'jaliklarida hayvonlar va parrandalar soni diagrammalarini chizish.

**17-mavzu: Qishloq xo'jaligi rayonlari tiplari**

**Reja:**

1. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish va tabiiy sharoitning tutgan o'rni.
2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqlim mintaqalari va tabiat zonalari bilan bog'liqligi.
3. Suv resurslarining qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishidagi ahamiyati.
4. Ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi mintaqalari.

**Ko'rgazmali qurollar:** Dunyo qishloq xo'jaligi kartasi, Agroiqlimiy resurslar kartasi, O'zbekiston qishloq xo'jaligi kartasi, adabiyotlar, yozuvsiz karta.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Iqlim hosil qiluvchi elementlar va ularni baholash. Dunyo agroiqlim xususiyatlarini o'rganish.

**Mavzuning nazariy qismi**

Dehqonchilik yo'nalishlarining shakllanishi va rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omillar birinchi navbatda geografik kengliklarga bog'liq tashkil topgan iqlim mintaqalari va zonalari, joy relyefi va mavjud agroiqlimiy resurslar hisoblanadi. Joy relyefining turlicha bo'lishi, hudud agroiqlimiy resurslarining rang-barangligi, binobarin ekin turlarining ko'pligini belgilab beradi.

Iqlim zonalarining dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlariga ta'sirini professor Yu. G. Saushkin tomonidan taqdim etilgan quyidagi jadval orqali aniq tasavvur etish mumkin.

## Iqlim zonalarining dehqonchilikni rivojlantirishga ta'siri

Iqlim zonolari	Iqlim oblastlari (B. P. Alisov bo'yicha)	Dehqonchilik imkoniyatlari
<p>I. Ekvatorial iqlim. Kuchsiz shamollar ko'p esadi. Havo harorati va namligining fasllar va sutka bo'yicha farqi juda kam. Jazirama va nam ob-havoga ega, tez-tez jala quyadi, momaqaldiroq bo'ladi. Quruqlikdagi issiqlik va anmlik darajasi okean rayonlariga yaqin</p>	<p>1. Eng issiq oblastlar</p> <p>2. Issiqlik kamroq oblastlar. Yil davomida janubiy yarim shardan shamol esib turadi.</p>	<p>Haroratning va namlikning barqarorligi madaniy ekinlar yil davomida yetishtirilishi mumkin, chunki eng sovuq oyning o'rtacha harorati +20<sup>0</sup> dan yuqoridir. Qirov tushmaydi. Ko'p yillik ekin turlarini yetishtirish afzal ko'riladi (kakao, kauchuk daraxti, xina daraxti, moyli palma, sago palmasi, bana va b.), bir yillik ekinlarning ahamiyati past; begona o'tlar tez o'sishi tufayli donli ekinlardan hosil olish qiyin; dala ekinlaridan eng ko'p ekiladiganlari ildizmevalilardir.</p> <p>Vegetasiya davri yil davomida, lekin ba'zi rayonlardagi qalin bulutlilik meva va sholining yetilishiga xalaqit beradi, shuning uchun sholi kam bulutli hududlarda ekiladi (Malayya), namlikning ko'pligi sholini sug'ormasdan yetishtirishga imkon beradi (Sumatra).</p> <p>Dengiz iqlim tipi. Orollar qirg'oqbo'ylarida kokos palmalari yetishtiriladi.</p>
<p>II. Subekvatorial zona. Yozda ekvatorial, qishda tropik mussonlar xos. Qish yozdan biroz salqin. Quruqlikda yog'inlarning mavsumiyligi</p>	<p>3. Barcha mavsumlar seryomg'ir.</p> <p>4. Yomg'irlar</p>	<p>Issiqlikning ko'pligi yil davomida dehqonchilik qilish imkonini beradi va sun'iy sug'orish sharoitida bir yillik donli ekinlardan bir yilda 3 marta hosil olinadi(sholidan). Ko'p yillik va bir yillik ekinlar teng darajada yetishtiriladi. Yog'inlarning mavsumiyligi yozda ekinlarni sug'ormasdan, qishda sun'iy sug'orish orqali yetishtiriladi yoki suvni kam talab qiladigan ekinlar</p>

<p>namoyon bo'ladi(seryomg'ir yoz, quruq qish). Okeanlarda, ekvator dan uzoq rayonlarda tropik siklonlar hosil bo'ladi.</p>	<p>faqat yozda yog'adi: a) seryomg'ir oblastlar  b) kamyomg'ir oblastlar</p>	<p>ekilishiga sabab bo'lgan. Pastqam hududlarga tonggi sovuq xos bo'lib, ba'zan qirov tushadi va ekinlarni nobud qiladi.</p> <p>Quruq mavsumga chidamsiz kokos palmalari, ko'p va barqaror namlikda katta hosil beruvchi ekinlar (manila kanopi, sug'oriladigan va lalmi sholi va b.). shakarqamishdan yilda 2 marta hosil olinadi (Filippin).</p> <p>Quruq iqsh mavsumida bug'doy, arpa, qurg'oqchilikka bardoshli moyli ekinlar yetishtiriladi. Seryomg'ir yoz arafasida sholi, jut, shakarqamish va boshqa namsevar ekinlar ekiladi. Bu ekinlar hosili yomg'ir mavsumidan so'ng, kuzda yig'ib olinadi.</p> <p>Yoz yomg'irlar tuproqni nisbatan kam namlaydi. Qurg'oqchilikka bardoshli donli ekinlar, masalan tariq ekiladi. Sun'iy sug'orishning ahamiyati katta. Qishdagi qurg'oqchilik sun'iy sug'orishsiz dehqonchilikka imkon bermaydi. G'o'za yetishtirish uchun eng qulay sharoitga ega.</p>
<p>III. Tropik zona. Passat shamollari xos, ular ayniqsa okeanlarda barqaror esadi. Ochiq havo. Qish iliq bo'lsada, haroratning mavsumiy o'zgarishi sezilarlidir. Zonaning ekvatorga yaqin tomonida, okeanlarning</p>	<p>5. Salqin, deyarli yomg'irsiz ob-havoga ega barqaror passatlar oblasti. Havodagi namlikning yuqoriligi, qirg'oqbo'yi tumanlari va kuchli brizlar xos.</p>	<p>Haroratning yuqoriligi dehqonchilik bilan yil davomida shug'ullanishga imkon beradi. Qishda madaniy ekinlar vegetasiyasi to'xtamaydi. Haroratning mutlaq minimumlari 0 dan yuqori. Namlik tanqisligi ko'p hududlarda sun'iy sug'orishni tashkil qilishga majbur qilgan. Finik palmasi va g'o'za yetishtirishning ahamiyati katta.</p> <p>Nam havo va eng iliq oy harorati o'rtacha 15<sup>0</sup>ga ega bo'lgan cho'llar (masalan Janubiy Afrikadagi Namib cho'li). Peru qirg'oqlarida eng iliq oying o'rtacha harorati 22-23<sup>0</sup>. Dehqonchilik faqat sun'iy sug'orish</p>

<p>asosan qarbiy qismlarida tropik siklonlar hosil bo'ladi.</p>	<p>6. O'tkinchi yomg'irli passatlar oblasti.</p> <p>7. Shamollar va sokinlik oblasti.</p> <p>8. Yozda passat, qishda beqaror shamollar.</p> <p>9. Qishda passat, yozda beqaror shamollar.</p> <p>10. Jazirama, qurg'oqchil oblastlar.</p>	<p>sharoitida rivojlanadi. Peruda haroratning nisbatan pastligiga qaramay peru g'o'zasi va shakarqamish yetishtiriladi (qand miqdori kam).</p> <p>Yaxshi namlikka ega, harorati dehqonchilik uchun qulay sharoitga ega. Shakarqamish, sholi, sitrus mevalari va boshqa ekinlar yetishtirish uchun imkoniyat katta.</p> <p>Dengiz iqlim tipi. Dengiz iqlim tipi. Dengiz iqlim tipi.</p> <p>Shimoliy Afrika, Arabiston, Kalaxari, Avstraliya, Meksika, Janubiy Amerikaning cho'l va chala cho'l oblastlari. Dehqonchilik sun'iy sug'orish sharoitida mavjud. Issiqlikning ko'pligi va havoning quruqligi sug'oriladigan maydonlarda g'o'za yetishtirishga yaxshi imkon beradi. Finik palmasining ahamiyati katta.</p>
<p>IV. Subtropik zona. Haroratning mavsumiy o'zgarishlari yaxshi seziladi. Musson oblastlaridan boshqa hududlarda yozda antisiklonga xos ob-havo hukm suradi, qishda siklonlar hosil bo'ladi.</p>	<p>11. Yozda ochiq, sokin, qishda seryomg'ir ob-havo.</p> <p>12. Nisbatan salqin, bulutsiz, tumanli yoz, seryomg'ir qish.</p> <p>13. Musson oblastlari. Quruqlikda jazirama,</p>	<p>Ikki xil vegetasion davr: yozg jazirama va iliq qishga xos. Bir yillik ekinlardan ikki (bahor va kuzda)marta hosil olinadi. -10<sup>0</sup> dan past bo'lmagan sovuqqa bardoshli darxt, buta shaklidagi ko'p yillik ekinlar katta ahamiyatga ega (zaytun, sitruslar, choy, tung, ko'plab mevali daraxtlar, uzum)</p> <p>Tabiiy namlikka asoslangan bug'doy arpa yetishtirish(kuzda ekiladi, kech bahorda hosil yig'iladi), uzum va zaytunchilik. Sug'oriladigan maydonlarda sholi, makkajo'xori, sorgo, dukkaklilar, ko'plab sabzavotlar, g'o'za, sitruslar ekiladi. Barcha iqlim oblastlari uchun bug'doy va uzum xos bo'lsa, boshqa</p>

	<p>seryomg'ir va nam yoz, nisbatan sovuq va quruq qish.</p> <p>14. Jazirama yoz va nisbatan sovuq qishga ega qurg'oqchil oblastlar.</p> <p>15. Yil davomida namgarchilikning teng taqsimlanishi.</p>	<p>turdagi ekin turlari hududlarning iqtisodiy sharoitiga muvofiq katta tafovutlarga ega.</p> <p>Dengiz iqlim tipi.</p> <p>Kuzda kuzgi bug'doy va arpa ekiladi; bahorda gaolyan(xitoy qo'nog'i), sorgo, makkajo'xori, dukkakililar ekiladi. G'o'za yozgi muhim ekin. Paxta terimi musson yomg'irlaridan keyingi quruq davrga to'g'ri keladi.</p> <p>Paxtachilik uchun juda qulay iqlimli, sun'iy sug'oriladigan dehqonchilik oblastlari. Nisbatan sovuq qish sitruslarni ekishga imkon bermaydi. Sug'oriladigan bog' va uzumzorlar qand miqdori juda yuqori bo'lgan hosil beradi. Qish arafasida lalmi donli ekinlar ekiladi va bahorda yig'ib olinadi.</p> <p>Yilda bir marta hosil olinadigan oblast. Asosan donli ekinlar: bug'doy, makkajo'xori, arpa va boshqalar ekiladi. Qurg'oqchilik kamdan-kam bo'ladi. Bog'dorchilik, tomorqachilik, o'tloq va ozuqa ekinlari uchun qulay iqlimga ega.</p>
<p>V. Mo'tadil zona. Tropik zonaga taqqoslaganda qish va yoz, quruqlik va suvlik o'rtasida farq juda katta. Qishda qor yog'adi.</p>	<p>16. Beqaror ob-havoli, kuchli shamollar esuvchi qish, nisbatan sookin yoz.</p> <p>17. ncha sovuq qish. Shimoliy rayonlarda yer muzlaydi. Yoz sertuman.</p> <p>18. Materik iqlimi oblasti: a) qish nisbatan yumshoq, nam. Yoz</p>	<p>Qishda dehqonchilik qilinmaydi. Yiliga bir marta hosil yig'iladi. Bir yillik dala ekinlar ko'p ekiladi. Janubiy hududlarda mevali daraxtlar yetishtiriladi.</p> <p>Yozgi harorat nisbatan kam. Donli ekinlar (ayniqsa arpa) hosilida kraxmal miqdori yuqori bo'ladi. Ko'pgina oblastlarda sero't o'tloqlar yil davomida yashilligini saqlab turadi (Irlandiya), yem-xashak va ozuqaviy ekinlar uchun qulay sharoitga ega. Bog'dorchilikni rivojlantirish mumkin.</p> <p>Dengiz iqlim tipi.</p>

	<p>juda iliq, yetarlicha nam. Ba'zi yillarda qurg'oqchilik kuzatiladi.</p> <p>b) qish nisbatan sovuq va quruq. Yoz issiq va juda quruq.</p> <p>v) qish nisbatan sovuq va quruq. Yoz iliq, nisbatan quruq, janubiy rayonlarda qurg'oqchilik ro'y berib turadi.</p> <p>g) juda sovuq va quruq qish. Iliq va mo'tadil namlikka ega yoz.</p> <p>19. O'tkinchi iqlim oblasti (okean iqlimidan materik iqlimiga):</p> <p>a) barcha mavsumlarda okean ta'siri seziladi.</p> <p>b) qishda okean ta'siri kuchli seziladi.</p> <p>v) okean ta'siri susaygan, yozda materik ta'siri kuchayadi.</p> <p>20. Musson oblasti. Nam, seryomg'ir yoz; sovuq va quruq qish.</p> <p>21. Nam, salqin</p>	<p>Kuzgi bug'doy, qandlavlagi, bog'dorchilik, uzumchilik uchun qulay iqlim sharoitiga ega.</p> <p>Sug'orma dehqonchilik. Sholi, qandlavlagi, bug'doy, ba'zi rayonlarda g'o'za ekiladi.</p> <p>Bahorikor bug'doy (oqsil miqdori yuqori) oblasti. Bog'dorchilik uchun noqulayliklar ko'p. Kuzgi ekinlarning ahamiyati kam.</p> <p>Ekinlarning bahorgi rivojiga to'sqinlik qiluvchi muzlagan tuproqlar mavjud. Bahorikor bug'doy va arpa yetishtiriladi. Kuzgi ekinlar ekilmaydi</p> <p>O'tloqlar uchun qulay va dehqonchilik uchun noqulay oblastlar. Kartoshka va sabzavotlar ekiladi.</p> <p>Issiqxonalarda dehqonchilik qilinadi.</p> <p>Dehqonchilik uchun qiyin sharoitga ega. Kuzgi javdar va arpa ekiladi.</p> <p>Kuzgi javdar, suli, zig'ir, kartoshka, ko'katlar, sabzavotlar yetishtiriladi. Bog'dorchilik shakllangan.</p> <p>Iqlim sharoiti donli ekinlar yetilishiga to'sqinlik qiladi. Janubda soya, gaolyan va boshqa kechpishar ekinlar uchun sharoit yaxshi. O'tloqlar hosil qilish imkoniyati katta.</p> <p>Juda oz miqdorda dehqonchilik o'choqlari mavjud (Kamchatkada; Labrador va Nyufaundlendda umuman yo'q).</p>
--	---	--

	yoz; sovuq qorli qish.	
VI. Subarktik zona. Qish va yoz o'rtasida haroratlar tafovuti katta.	22. Salqin va sernam yoz. Sovuq, nam sershamol qish. 23. a) juda sovuq, kamqor qish, qisqa nisbatan iliq yoz.  b) uncha sovuq bo'lmagan, serqor qish.	Shimolga xos dehqonchilik. Tezpushar donli ekinlar (arpa) va sabzavotlar kunduz yorug'ligida yetishtirishga asoslangan. Tomorqachilikning mayda o'choqlari. Dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyati mavjud: bahorikor javdar, arpa, tomorqa ekinlari ekish mumkin. qish arafasida sug'orish yaxshi natija beradi (markaziy Yoqutiston). Qutbyoni tomorqachiligi.
VII. Arktika va antarktika zonasi yillik ulkan va sutkalik kichik haroratlar tebranishi. Yog'inlar kam. Sovuq, tumanli yoz.	24. Nisbatan iliq yoz.  25. Sovuq qish. 26. Yozgi harorat 0 <sup>o</sup> dan past. Juda sovuq qish.	Yopiq gruntida qutb kunduzi yorug'ligidan foydalaniladigan sabzavotchilik. Yopiq grunt sabzavotchiligi o'choqlari. Yer qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz.

Bu jadval orqali butun dunyodagi iqlim zonalari va ulardagi dehqonchilik imkoniyatlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Dehqonchilikka relyefning ta'siri xususan sug'orish ishlarida va balandlik mintaqalarida iqlimning o'zgarishi ekin turlarining haroratga munosabati jihatidan tanlanishida namoyon bo'ladi. Yonbag'irlar qiyaligi sug'orma dehqonchilikning va turli ekinlarning tog'li zonalardagi tafovutlarini belgilab beradi. Shu o'rinda, A. N. Rakitnikovning balandlik mintaqalari bo'yicha ekin turlarini yetishtirish imkoniyatlarini Sharqiy Farg'ona misolida ko'rsatib berilgan ma'lumotlarin keltirish maqsadga muvofiqdir:

700 metrgacha – haydaladigan yerarda sug'oriladigan maydonlarning ustunligi;

700-900 m – lalmi yerlar vohalardagi sug'oriladigan maydonlardan ko'proq;

1050 m – g'o'za maydonlarining yuqori chegarasi;

1250 m – asosiy sug'oriladigan maydonlarning yuqori chegarasi;

1300 m – yovvoyi yong'oqzorlarning quyi chegarasi; qiyaligi 10-15<sup>o</sup> dan yuqori bo'lgan maydonlarning ko'payishi;

1400 m – makkajo'xori va tariq ekinlari;

1600 m – o'tloq-dasht, qoratuproqli hududlar; barcha yonbag'irlarda pichanzorlar, ekinlarning barqaror hosildorligi, traktorlar ishlov bera oladigan eng yuqori hududlar, o'rikning yuqori chegarasi;



- 1900 – makkajo’xori va tariqning eng yuqori chegarasi;
- 2300 m – yovvoyi yong’oqzorlarning yuqori chegarasi;
- 2400 m – dehqonchilik, pichanzorlar va asalarichilikning yuqori chegarasi;
- 2700 m – subalp o’tloqlarning boshlanish zonasi;
- 4000 m – abadiy qorlarning quyi chegarasi.

Balandlik mintaqalarida qishloq xo’jalik ekinlarining tarqalishi turli tog’li hududlar misolida ko’plab olimlar tomonidan tahlil qilingan. O’z vaqtida V. V. Dokuchayev Kavkaz tog’larining balandlik mintaqalarini tavsiflagan edi.

And va Tibet tog’larining 4000 metrdan yuqori hududlarida ham kartoshka yetishtirilishi kuzatilgan.

### **Amaliy ishning borishi:**

#### **Mavzuga oid savollar:**

1. Qishloq xo’jaligi iqtisodiy samaradorligining sanoatga nisbatan pastligining sababi nimada?
2. Qishloq xo’jaligi yerlari xaritada qanday tasvirlanadi?
3. Dunyo miqyosida hududlar tabiiy-iqlim sharoitlariga ko’ra qanday qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan?
4. Chuchuk suv resurslarining qishloq xo’jaligi sohalarini rivojlantirishga qanday ta’siri bor?
5. Qishloq xo’jaligi mahsulotlarini yetishtirishda tuproq unumdorligi, hudud rel’yefi, quyosh energiyasi, fasllar almashinishi kabi omillarning ahamiyatini izohlang.
6. O’zbekistonda subtropik iqlim mintaqasiga xos qanday mahsulotlar yetishtiriladi?
7. O’zbekistonda tabiiy iqlim sharoitlaridan kelib chiqib qaysi o’simliklardan ikki marta hosil olinadi?
8. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqlim sharoitlariga mos holda qishloq xo’jaligining qaysi tarmoqlari rivojlanganligi bilan ajralib turadi?

#### **Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Dunyo qishloq xo’jaligi kartasini tahlil qilish va qit’alar bo’yicha qishloq xo’jaligi yerlarining ixtisoslashuvi va iqlim sharoitlari o’rtasidagi bog’liqlikni o’rganish.
2. Dunyo qishloq xo’jaligi kartasini chizish.
3. Agroiqlimiy kartani tahlil qilish. Bunda o’simliklarni issiqlik bilan ta’minlanganligiga ko’ra: sovuq mintaqa, mo’tadil mintaqa, subtropik mintaqa, tropik mintaqalarni va o’simliklarning man bilan ta’minlanganligiga ko’ra: namchil, qurg’oqchil, quruq mintaqalarni o’rganish.
4. Agroiqlimiy resurslar jadvalini o’rganish.
5. Dunyo suv resurslari kartasini tahlil qilish. Bunda har bir kishiga yiliga suv resurslari bilan ta’minlanish darajasiga ko’ra hududlarni ajratish.
6. Chuchuk suv resurslari va jahonning suv resurslari jadvallarini tahlil qilish va shu asosda diagrammalar tuzish.

<b>O'simliklarning issiqlik bilan ta'minlanganligi</b>	
<b>10<sup>0</sup> dan yuqori bo'lgan davrdagi havo haroratining yig'indisi</b>	<b>Mintaqalar uchun xos bo'lgan qishloq xo'jalik ekinlari</b>
<b>Sovuq mintaq</b>	
Vegetatsiyaning yozgi qorasovuqlar bo'lib turadigan qisqa davri	
400 <sup>0</sup> dan kam	Himoya qilingan yerlar sabzavotchiligi
400-1000 <sup>0</sup>	Makonli dehqonchilik, issiqlikka kam talabchan sabzavot ekinlari, rediska, ismaloq, barra piyoz, sholg'om ertagi kartoshka
<b>Mo'tadil mintaq</b>	
Sovuq mo'tadil mintaqacha Vegetatsiya davri qisqa bo'lgan ekinlar	
1000-2200 <sup>0</sup>	Javdar, bug'doy, dukkakli g'alla ekinlari, zig'ir, kartoshka, mevalilar, rezavorlar
Mo'tadil mintaqacha Vegetatsiya davri o'rtacha va uzoq davom etadigan ekinlar	
2200-4000 <sup>0</sup>	Don ekinlarining kechki navlari makkajo'xori, kungaboqar, qand lavlagi, mintaqachaning janubida-sholi, uzum
<b>Subtropik mintaq</b>	
Vegetatsiya davri juda uzun bo'lgan issiqsevar ekinlar	
4000-8000 <sup>0</sup>	G'o'za , kechki makkajo'xori, zaytun daraxti, sitruslilar, choy, tamaki, ba'zan xurmo daraxti va boshqalar
<b>Tropik mintaq</b>	
O'simliklarning yil davomida uzluksiz vegetatsiyasi Yil davomida bir necha hosil yig'ib olish	
8000 <sup>0</sup> dan ko'p	Vegetatsiya davri eng uzoq davom etadigan issiqsevar ko'p yillik va bir yillik ekinlar. Shakarqamish, kofe, kakao, xina daraxti, kauchuk o'simligi va boshqalar

### 18-mavzu: Transport tarmoqlari

#### Reja:

1. Transport geografiasining rivojlanishi.
2. Transport geografiasining asosiy tushunchalari.
3. Transport tarmoqlarining rivojlanishida FTIning ahamiyati.
4. Transportning tarmoq tarkibi.

**Ko'rgazmali qurollar:** Jahon transport kartasi, O'zbekiston transport kartasi, Avtomobil yo'llari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari jadvali.

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Dunyo miqyisida va O'zbekistonda transport tarmoqlarining rivojlanishi, quruqlik, havo, suv, quvur, electron transport tarmoqlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish.

### **Mavzuning nazariy qismi**

Sanoatning yuksalishi va xalqaro munosabatlarda savdo-sotiqning muhim o'ringa chiqishi, XVIII-XIX asrlarda turli mintaqalarning ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, ular o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash va sotishning faollashtirdi. Shu bilan bir qatorda bu jarayon arzon xom-ashyo va ishchi kuchiga ehtiyoj tug'dirdi. Natijada mintaqalar va davlatlar o'rtasida nafaqat tayyor mahsulot, balki xom-ashyo va mehnat resurslarining almashinuvi ham kuchaya boshladi. Bu holat transportning taraqqiy etishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, XVIII asr oxiri va XIX asr boshida avtomobil va temir yo'l, XIX asr oxirida quvur, XX asr boshida havo transporti shakllandi va rivojlandi.

Dunyoda transport yo'llarining uzunligi bo'yicha avtomobil transporti birinchi o'rinda (28 mln km). Bu uning boshqa transport vositalaridan arzonligi va ko'pchilik tomonidan sotib olish mumkinligi bilan belgilanadi. Ikkinchi o'rinda dengiz transporti bo'lib, dunyo okeanining bepoyon kengliklari tufayli 10 500 ming km ni tashkil etadi. Quvur transportida neft quvurlarining uzunligi 760 ming km, gaz quvurlarini esa 1 200 ming km ni tashkil etadi. Temir yo'llar uzunligi 1 250 000 km ga etadi. Ichki suv transporti yo'llari (daryo va kanallar) 550 000 km ni tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki transport tizimida alohida transport turlarida yuk va yo'lovchi tashish tannarxi turlicha. Eng arzon tannarxga ega bo'lgan transport turi dengiz transporti bo'lsa, eng qimmatlari avtomobil va ayniqsa havo transportidir.

Bugungi kunda avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi bo'yicha AQSH, Hindiston va Braziliya oldingi o'rinlarda turadi. So'nggi yillarda Xitoyda ko'plab avtomagistrallar qurildi. Qattiq qoplamali yo'llar uzunligi 18 mln km ni tashkil etadi. Bu yo'llarning uzunligi bo'yicha:

1. AQSh (5,6 mln km dan ortiq.);
2. Yaponiya (1,1 mln km dan ortiq);

3. Xitoy (850 ming km). mamlakatlari oldingi o'rinlarda turadi, ulardan keyin Hindiston, Fransiya, Kanada, Rossiya va Germaniya turadi. Avtomobil yo'llarining zichligi bo'yicha Yaponiya va G'arbiy Yevropa davlatlari, ayniqsa Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Niderlandiya ajralib turadi.

### **24-jadval**

#### **Temir yo'llar uzunligi bo'yicha dunyo mamlakatlarining birinchi**

#### **o'nligi**

<b>T/r</b>	<b>mamlakat</b>	<b>Temir yo'llar uzunligi (ming km)</b>	<b>T/r</b>	<b>mamlakat</b>	<b>Temir yo'llar uzunligi (ming km)</b>
1	AQSH	175,9	6	Germaniya	41,4
2	Rossiya	87,5	7	Avstraliya	36,2

3	Kanada	84,7	8	Argentina	34,1
4	Hindiston	62,2	9	Fransiya	32,3
5	Xitoy	54,0	10	Braziliya	32,0

Dunyodagi eng uzun neft quvuri magistrallari Rossiya va Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi "Do'stlik" (5,5 ming km), Urengoy-G'arbiy Yevropa (4,5 ming km), Kanadadagi Reduoter-Port-Kredit (4,8 ming km), Edmonton-Monreal(3,2 ming km), AQSh dagi Xyuston-Nyu-York (2,5 ming km) kabilardir.

**25-jadval.**

**Quvur transporti bo'yicha yetakchi davlatlarning birinchi o'nligi.**

T/r	mamlakat	Neft quvurlarining uzunligi (ming km)	T/r	mamlakat	Gaz quvurlarining uzunligi (ming km)
1	AQSh	325	1	AQSh	440
2	Rossiya	66	2	Rossiya	150
3	Kanada	50	3	Kanada	95
4	Xitoy	8	4	Germaniya	55
5	Saudiya Arabistoni	8	5	Fransiya	30
6	Hindiston	6	6	Italiya	18
7	Meksika	6	7	Niderlandiya	16
8	Fransiya	6	8	Polsha	10
9	Eron	5	9	Ruminiya	7
10	Jazoir	4	10	Mekska	7

**26-jadval**

**Dunyodagi eng yirik aeroportlar yo'lovchi aylanmasi.**

O'rin	Aeroport nomi	shahar	mamlakat	Yo'lovchi aylanmasi (yiliga mln kishi)
1	Xartfild	Atlanta	AQSh	80,2
2	O'Xara	Chikago	AQSh	73,1
3	Los-Anjeles	Los-Anjeles	AQSh	65,8
4	Xitrou	London	Buyuk Britaniya	65,2
5	Dallas	Dallas	AQSh	60,9
6	Xaneda	Tokio	Yaponiya	55,6
7	Reyn-Mayn	Frankfurt – Mayn	Germaniya	49,0
8	SHarl de Goll	Parij	Fransiya	48,3
9	San-Frantsisko	San-Frantsisko	AQSh	41,1
10	Sxipxoll	Amsterdam	Niderlandiya	40,2

## Eng yirik uiversal dengiz portlari

T/r	Port nomi	Mamlakat	Yuk aylanmasi (mln tonna)
1	Shanxay	Xitoy	460
2	Singapur	Singapur	323
3	Rotterdam	Niderlandiya	307
4	Tyantszin	Xitoy	243
5	Janubiy Luiziana	AQSh	240
6	Kobe	Yaponiya	235
7	Syangan (Gonkong)	Xitoy	227
8	Tiba	Yaponiya	219
9	Nagoya	Yaponiya	215
10	Ninbo	Xitoy	212

**Amaliy ishning borishi:****Mavzuga oid savollar:**

1. Transport geografiyasining rivojlanishi qaysi davrga to'g'ri keladi va bunga qanday omillar ta'sir ko'rsatdi?

2. Magistral, shosse, yuk o'tkazish sur'ati, yuk oboroti, yo'lovchikilometr, yo'lovchi oboroti, yo'lovchi oqimi zichligi, tunnel, shosse, trakt, bandargoh, kabotaj, farvater, porto-franko, registr-tonna, tramp floti, trauler tushunchalarini izohlang.

3. Transport to'riining rivojlanishida tabiiy sharoitning o'rni qanday?

4. Ilmiy-texnika taraqqiyoti transport tarmoqlarining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

5. Transport ishlab chiqarishining boshqa tarmoqlardan farq qiladigan xususiyatlarini izohlang.

6. Havo, suv, avtomobil, temir yo'l, quvur, elektron transport tarmoqlari rivojlangan hududlarga misollar keltiring.

**Mavzuga oid topshiriqlar:**

1. Umumiy foydalanishdagi temir yo'llarning ekspluatatsiya uzunligi va zichligi kartasini tahlil qiling va temir yo'llar zichligi bo'yicha viloyatlarni taqqoslang.

2. Umumiy foydalanishdagi qattiq qoplamali avtomobil yo'llarining zichligini tahlil qiling.

3. Transport turlari bo'yicha umumiy hajmga ko'ra yuk tashish va yuk oboroti tarkibi diagrammasini chizing.

4. O'zbekiston transporti kartasini chizing.

5. Avtomobil yo'llari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari jadvalini tahlil qiling.

6. Dunyoning transport tarmoqlari, dunyo bo'yicha yuk va yo'lovchi tashish aylanmasi strukturasi, dengiz floti tonnaji bo'yicha asosiy o'nta mamlakat diagrammalarini chizing.

7. Transport tarmoqlari bilan ta'minlangalik ko'rsatkichlari bo'yicha dunyo mamlakatlarini tahlil qiling. Dunyo okeanining asosiy bo'g'ozlari, asosiy dengiz portlari, kema qatnovi yo'llarining eng muhim yo'nalishlari ro'yxatini tuzing.

**28-jadval**

**Avtomobil yo'llari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari (ming km)**

Xalq xo'jaligidagi jami	1990	1995	2000	2004	2005
Qoplamali yo'llar	78,4	85,7	91,2	89,0	90,0
Shu jumladan,					
Qattiq qoplamali	67,0	74,4	73,0	73,0	74,6
Umumiy foydalaniladigan qoplamali yo'llar, jami	42,7	43,5	43,5	42,0	44,0
Shu jumladan,					
Qattiq qoplamali yo'llar	40,4	41,6	42,1	42,3	42,3
ulardan:					
Sement beton qoplamali	0,3	0,3	0,339	0,337	0,339
Asfalt beton qoplamali	20,7	21,9	22,058	22,058	22,058
Qatron –shag'al va qoplamali tosh yo'llar	17,7	17,8	19,621	20,5	20,5

## **Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati**

### **Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari**

1. Asanov A., Nabixonov M., Safarov I. «O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi». Toshkent, O'qituvchi, 1994.
2. Soliyev A., Maxamadaliev R. «Iqtisodiy geografiya asoslari». Toshkent, Universitet, 1996.
3. Soliyev A., Safarov I. «Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari». Toshkent, Universitet, 2003.
4. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Toshkent 2010 yil.
5. Бабуринов В.Л., Мазуров Ю.Л. Географические основы управления. -М., 2000.
6. Бутов В.И., Игнатов В.Г., Кетова Н.П. Основы региональной экономики. Ростов-на Дону, 2000.
7. Вавилова Е.В. Экономическая география и регионалистика. -М., 2000.  
Регионоведение. Под ред. проф. Т.Г.Морозовой, Учебное пособие. -М., 1998.
9. Родоман Б.Б. Территориальные ареалы и сети. -М., 1999.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Kurbonniyozov R. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti asoslari». Toshkent-1995.
2. Jaxon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanidan 9-sinf uchun atlas.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)
5. [www.connect.uz](http://www.connect.uz)
6. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

## MUNDARIJA:

<b>№</b>	<b>Amaliy mashg`ulot mavzusi</b>	<b>Beti</b>
	Kirish	<b>3</b>
1	Moddiy ishlab chiqarish asoslari kursi maqsadi va vazifasi.	5
2	Ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllanish va rivojlanish bosqichlari.	6
3	Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari.	10
4	Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar.	12
5	Sanoat tarmoqlarini tshkil etish va rivojlantirish asoslari.	16
6	Yoqilg'i-energetika majmuasi.	18
7	Metallurgiya majmui.	20
8	Mashinasozlik majmuasi.	21
9	Kimyo majmuasi.	23
10	O'rmon va qurilish materiallari ishlab chiqarish majmuasi.	26
11	Yengil va oziq-ovqat sanoati.	28
12	Sanoatni rayonlashtirish asoslari.	32
13	Yer fondi va uning tuzilishi.	35
14	Qishloq xo'jaligini rivojlantirish asoslari.	37
15	Dehqonchilik tarmog'i.	39
16	Chorvachilik tarmog'i.	46
17	Qishloq xo'jaligi rayonlari tiplari.	50
18	Transport tarmoqlari	58
	Adabiyotlar ro`yxati	63